

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**  
**IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI**

**Ijtimoiy ish kafedrasи**  
**"Ijtimoiy ish" yo'nalishi**  
13.464 guruh bitiruvchisi  
Tursunov Abduvalining

**"Mehribonlik uylari o'quvchilarini barkamol tarbiyalashda ijtimoiy ish xodimining roli"** mavzusidagi

**BITIRUV**  
**MALAKA VIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:** F.Turg'unboyev

"Ijtimoiy ish" kafedrasи dotsenti,  
falfafa fanlari doktori.

**Farg'ona – 2017 yil**

## **Mundarija:**

### **Kirish.....**

#### **I bob. O'zbekiston ijtimoiy siyosatining inson manfaatlarini qondirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi.....**

- 1.1. O'zbekiston ijtimoiy siyosatining mazmun va mohiyati, asosiy yo'nalishlari.....
- 1.2. Ijtimoiy siyosatda inson omili va manfaatlarning uyg'unligi.....
- 1.3. O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish tamoyillari.....

#### **II bob Mustaqillik yillarida O'zbekistonda mehribonlik uylarini tashkil qilish va qo'llab-quvvatlash masalalari .....**

- 2.1. Mehribonlik uylrida ijtimoiy ish tashkil qilishning metod va uslublari....
- 2.2. Mehribonlik uylari o'quvchilarini tarbiyalashda ijtimoiy ish xodimlarining dolzarb vazifalari.....
- 2.3. Mehribonlik uylari tarbiyanuvchilarida milliy g'urur hissini shakllantirish masalalari.....

### **Xulosa va tavsiyalar.....**

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....**

## K I R I S H

**Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbliji.** Mustaqillik yillarida fuqarolarni ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Mazkur sohani davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilishi esa jamiyatda bozor ishlab chiqarishiga asoslangan ijtimoiy qaror topayotgan va ijtimoiy munosabatlar mazmunida raqobat yetakchi o'rin egallayotgan mavjud sharoitda fuqarolarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkoniyatini yaratdi.

Hukumat tomonidan amalga oshiriladigan asosiy himoya choralari, eng avvalo, nogironlar, yetim-yesirlar, qariyalar, ko'p farzandli onalar, talabalar va maktab o'quvchilari manfaatlariga xizmat qiladi. Yetim-yesirlarni har tomonlama himoya qilish, ularga mehr-muruvvat ko'rsatish, milliy istiqlol g'oyasi asosida ta'lim-tarbiya berish kabi muhim masalalar bilan bevosita bog'liqdir. Yetim-yesirlarga g'amxo'rlik deganda, birinchi navbatda, Mehribonlik uylarini qo'llab-quvvatlash nazarda tutilgan. Boquvchisidan mahrum bo'lgan yetimlarga g'amxo'rlik qilish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida maxsus Qonun bilan kafolatlanib qo'yilgan. Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham boquvchisidan ayrılgan bolalarni himoya qilishga alohida e'tibor berilgan.

Milliy g'urur-shaxs, ijtimoiy guruhning muayyan millatga mansubligidan faxrlanish hissi. Bu tuyg'u o'zini- o'zi anglash shakllaridan biri bo'lib, ajdodlar qoldirgan moddiy, ma'naviy meros, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, qadr-qimmati, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalaydi. Shunday ekan xalqimiz ana shunday faxrga boy xalqdir. U shaxs va ijtimoiy guruh xulq- atvorini muayyan tarzda yo'naltiradi, tartibga soladi. Milliy g'urur haqida yurtboshimiz asarlarida ham keltirilgan. Jumladan, g'ururi bor odamning qaddi rost, boshi baland bo'ladi. Oldimizda turgan ulkan, juda og'ir vazifalarni bajarish, muammolarni yechish, katta sinovlardan o'tish bularning hammasi xalqimizning ruhini, milliy g'ururini tiklash bilan bog'liqdir". Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning puxta asoslangan

mexanizmini yaratish,keng jamoatchilik e'tiborini mazkur masalaga tortish, bu borada samarali sanalgan omillarni aniqlash,yangi imkoniyatlarni izlab topish muammolarini hal etishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi tadqiqotning dolzarbligini asoslaydi.Tarbiyalanuvchilarni jamiyatning yetuk a'zosi sifatida ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash,ular tomonidan muayyan kasb yoki hunar sirlarini o'zlashtirilishiga erishish,keskin raqobatlarga bardosh bera oladigan darajada ruhan kamol topishlari uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish,mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish chora tadbirlarini belgilash tadqiqot muammosi sifatida tanlangan.Mehribonlik uylarida ta'limg' tarbya ishlarini tashkil qilish va olib borishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish,shakl va metodlarini ishlab chiqish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan dolzarb masaladir.Biroq,Mehribonlik uylarining tarbiyalanuvchilarida milliy iftixor va milliy g'ururni tarkib toptirish,shakllantirish takomillashtirish va tarbiyalashga bag'ishlangan ilmiy kuzatish ishlari yetarlicha emas. Zero,milliy g'ururni yuksaltirish orqali vatanga,xalqqa,kelajagi buyuk davlat istiqboliga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish va tarbiyalash mumkin.

Mustaqillik yillarida Mehribonlik uylari faoliyatini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasining Oliy majlisi hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Ular asosida "Mehribonlik uyi to'g'risidagi Nizom" qabul qilindi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 18-fevralda 59-sonli qarori aynan "Mehribonlik uyi" to'g'risida qabul qilinib, u o'zining amaldagi ijrosini ta'minladi. Ushbu tarixiy qaror har tomonlama muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa bu qaror o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy qadriyatlarimizni, an'analarimizni o'zida namoyon etib, ajdodlarimiz merosiga asoslanadi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga har tomonlama yordam bera oladi. Vazirlar Mahkamasining ushbu qarorini amaldagi ijrosini ta'minlash maqsadida "Mehribonlik uyi to'g'risidagi Nizom" qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 17-oktabrdagi "Mehribonlik uyi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida "gi 230-sonli qarori ijro uchun qabul qilindi.

Xatto "Ta'limg' to'g'risidagi qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy

dasturi”ning 22-moddasida ham boquvchisini yo’qotgan bolalar haqida shunday deyilgan. “Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarning vasiyligisiz qolgan bolalarni o’qitish va ularni boqish davlatning to’la ta’minoti asosida qonun xujjalarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi”.

**Bitiruv malakaviy ishning ob’yekti va predmeti.** Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida barkamol etib shakllantirish jarayoni ishning ob’yekti hisoblansa, Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni shakllantirish va ularni shu ruhda tarbiyalash hamda mustahkamlash bosqichlari predmeti hisoblanadai.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari.** Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida barkamol etib tarbiyalashning shakllari, samarali yo’llarini va usullarini ishlab chiqish va ularni ilmiy nazariy asoslash ishning maqsadidir. Bitiruv malakaviy ishning maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko’zda tutildi:

- 
- Olib chiqilayotgan mavzuni nazariy jihatdan o’rganish;
  - Muammoni amalga tadbiq etish yo’llarini ochib berish;
  - Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida milliy g’urur hissini tarbiyalashda o’quv fanlarining o’rni katta ekanini pedagogik texnologiyalar asosida ochib berish;
  - Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni tarbiyalashda tarbiyaviy tadbirlar o’tkazishning ahamiyat kasb etishini “Innovasion”tadbirlar asosida joriy etish;
  - Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni tarbiyalashda tajriba – sinov ishlarini tadbiq etishda samarali yo’llarni ishlab chiqish va ularni natijasini aniqlashdan iborat.

#### **Bitiruv malakaviy ishining o’rganilganlik darajasi: .**

Mustaqillik sharofati bilan boshqa sohalarda bo’lgani singari, oila va unda tarbiyalanadigan barkamol farzand haqida tez-tez fikr almashiniladigan bo’ldi. Ayniqsa, bu muammoni davlat siyosati darajasigacha ko’tarilishi muhim

ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi chiqiriq IX sessiyasida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan qilingan ma'ruzasi barkamol, sog'lom avlodlarning o'tgan vaqtdagi va bugungi hamda kelajakdagi holatini tahlil qilib berdiki, endilikda bu esa tarbiya va ta'limni asosiy dasturini tashkil qiladi, desak xato bo'lmaydi. Bundan tashqari Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlardan ham keng foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati** keng qamrovli bo'lib, tadqiqotning xulosa qismidagi tavsiyalardan amaliyotda, shuningdek kasb-hunar kollejlarida qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining strukturaviy tuzilishi.** Tadqiqot ishi kirish, ikkita bob, olti paragraf, xulosa va foydalanigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Har bir bob uchtadan paragraflarga bo'lingan.

---

## **I bob. O'zbekiston ijtimoiy siyosatining inson manfaatlarini qondirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi.**

### **1.1.O'zbekiston ijtimoiy siyosatining mazmun va mohiyati, asosiy yo'nalishlari.**

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri axoliga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish yo'li bilan sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirishdir. So'nggi o'n yillikda O'zbekistonda fuqarolarning malakali tibbiy xizmat va ijtimoiy himoyaga bo'lgan konstitutsion huquqlarini ta'minlashga yo'naltirilgan sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi muvaffaqiyat bilan amalga oshirilmoqda. SHuningdek, tibbiy xizmat sifatini oshirish uchun huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy sharoitlar yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1998 yil 10 noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risida"gi PF-2107-sonli Farmoniga muvofiq respublikada ko'p bosqichli islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar natijasida esa axoliga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirishga, tibbiy-sanitariya xizmatlarining davlat tomonidan kafolatlangan hajmi doirasidagi tibbiy xizmatning ommabopligi va havfsizligiga asoslangan sog'liqni saqlash tizimining moddiy - texnik bazasini rivojlantirishga qaratilgan sog'liqni saqlash Milliy modeli yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning ijtimoiy ta'minot olishga bo'lgan huquqlari mustahkamlab va kafolatlab qo'yilgan. Jumladan, Konstitutsiyamizning 39-moddasida shunday deyiladi: «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda va boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam turlarining boshqa turlari rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin

emas<sup>1</sup>»

Mustaqillik munosabati bilan respublikamizda ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minotning mazmun va mohiyati tubdan o'zgardi. Ijtimoiy himoya davlatimizning ichki siyosatining asosiy tamoyillaridan biri qilib belgilandi, chunki bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tib borar ekanmiz, aholini kam ta'minlangan, muhtoj qatlarni ijtimoiy larzalardan ishonchli tarzda himoyalash va kafolatlash zarur. Aholini davlat himoyasiga muhtoj bo'lgan qatlami ko'p bolali

oilalarni, qariyalar, nogironlar, boquvchisidan mahrum bo'lganlarning ahvoli bozor munosabatlarga o'tish davrida narx-navoning oshishi, pulning qadrsizlanishi bilan tirikchiligi qiyinlashib qoladi. «Ijtimoiyadolat qoidalarini ro'yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari — keksalar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalar, o'quvchi yoshlarning davlat tomonidan ijtimoiy muhofazaga bo'lgan kafolotli huquqlarini ta'minlashdir<sup>2</sup>». Hozirgi davrdagi asosiy maqsad bo'lib hisoblangan davlatning asosiy vazifasi kishilar boshiga ochlik va muhtojlik tushishiga yo'l qo'ymaslikdir. Har qanday davlat ham o'z aholisini himoya qila olsagina, u insonparvar davlat bo'la oladi.

Kishilarning ijtimoiy himoyalashning va huquqiy kafolotlashning kuchli va ta'sirchan mexanizmi mavjud bo'lgandagina, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolish mumkin. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston — bozor munosabatlarga o'tishning o'ziga xos yo'li» asarida kuchli ijtimoiy siyosat-iqtisodiy o'zgartirishlarning ishonchli kafolati ekanligi va bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish kerakligi ta'kidlangan. Bu shuni anglatadiki, bozor munosabatlariga o'tish davridagi iqtisodiy tizim islohoti aholining, ayniqsa uning kambag'al qismini ijtimoiy himoyalash masalasi birinchi o'ringa qo'yildi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, - T: «O'zbekiston» NMIU, 2013- y.

<sup>2</sup> Karimov I.A, «O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. - T: O'zbekiston NMIU, 1992-y

Mustaqillikka erishgan vaqtimizdan boshlab, erishilgan ulkan yutuqlarimizdan biri bu bozor munosabatlarining qaror topayotganligi, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yangicha demokratik tuzum, fuqarolik jamiyati rivojlanib borayotganligidir. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov o‘zining bir qancha asarlarida ijtimoiy himoya tizimini yanada yaxshilash va mustahkamlash to‘grisida o‘z yo‘nalishlarini belgilab berdi. O‘tgan davr mobaynida ijtimoiy ta’minot sohasida ulkan o‘zgarishlar va islohotlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi davlatimizning kuchli ijtimoiy himoya siyosatiga amal qilgan holda, «O‘zbekiston Respublikasi aholisining 2010-yilgacha davrga mo‘ljallangan ijtimoiy himoyasi yagona tizimini yaratish konsepsiysi »ni ishlab chiqdi.

Bu konsepsiya davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish uchun yagona yo‘l ishlab chiqish va turli davlat idoralari va jamoat tashkilotlarini kuchlarini birlashtirish lozimligi ta’kidlab o‘tilgan. Unda ijtimoiy himoyaning mavjud usullarini, ularni moliyaviy ta’minalash manbalarini tubdan o‘zgartirish, bu muammolarni faqat davlat mablag‘lari hisobiga hal qilmay, balki xayriya va jamoat mablag‘larini ham jalb qilish zarurligi kabi qoidalar asosiy o‘rin olgan.

Aholini ijtimoiy himoyalash masalalari ijtimoiy ta’minot organlari bilan birga Mehnat, Moliya, Sog‘liqni saqlash, Aloqa vazirliklari, Pensiya Jamg‘armasiga hamda jamoat tashkilotlari bo‘lgan Ko‘zi ojizlar, Kar-soqovlar, Nogironlar, Qizil Yarimoy jamiyatlari, «Mehribonlik», «Bolalar», «Navro‘z», «Sog‘lom avlod uchun» kabi xayriyajamg‘armalariga ham yuklatilgandir. Hozirgi sharoitda aholining ijtimoiy himoya turlari kengayib, uning qo‘llanish asoslarini tubdan o‘zgartirish talab qilinayotgan bir paytda xizmat ko‘rsatilayotgan aholi soni va sarflanayotgan mablag‘ miqdori jihatidan pensiya ta’minoti aholini ijtimoiy himoyalashda asosiy o‘rinni egallaydi.

1993-yil 3-sentabrda Oliy Majlis tomonidan O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilinib, 1994-yil 1-iyuldan respublika hududida kuchga kirdi.

Qonunga asosan, faqat ish staji mavjud bo‘lgan shaxslargagina pensiyalar tayinlanishi belgilangan. Bu pensiyalar yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalaridir. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov o‘zining Oliy Majlisning 1999-yil aprelda so‘zlagan nutqida kelgusida ijtimoiy himoyani aniq toifa kishilariga qaratilishini kuchaytirish kerakligi haqida gapirib o‘tdi. Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, ijtimoiy ta’minot tizimida qo‘llanilayotgan hozirgi qonunlarimizni ham qaytadan ishlab chiqish zaruriyati tug‘ildi. O‘zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Qonunda belgilangan pensiya yoshi Xalqaro Mehnat Tashkilotining «Nogironlik, qarilik va boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha nafaqlar to‘g‘risida»gi Konvensiyada ko‘zda tutilganidan 5 va 10 yil kamdir.

Bundan tashqari ish sharoiti zararli va og‘ir bo‘lgan xodimlar, teatr, sirk va boshqa tomosha muassasalarining artistlari, aviatsiya, maorif, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi, urush nogironlari, ko‘p bolali onalar va boshqa ayrim toifaga tegishli fuqarolar yoshga doir pensiyani bundan ham ilgariroq olish huquqiga ega bo‘ladilar.

Pensiya haqidagi qonunni ishlab chiqishda pensiya yoshini oshirish, imtiyozli pensiyalar turlarini kamaytirish zarur. Chunki hozirgi belgilangan pensiya yoshidagi kishilar mehnatga layoqatli hisoblanib, yana bir necha yil bemalol o‘z ishlarini davom ettirishlari mumkin. Pensiyaga chiqqandan keyin ishlayotgan pensionerlar buning yaqqol dalilidir.

Agar pensiya yoshi uzaytirilsa, ayrim imtiyozli pensiyalar qisqartirilsa, sarflanayotgan mablag‘larni tejab qolishga, kelgusi yillarda o‘sib kelishi ehtimoli tug‘ilgan pensionerlarni hamda aholini haqiqatdan ham muhtoj bo‘lgan qatlamini ijtimoiy himoyalashning kuchli va ta’sirchan mexanizmi yaratiladi.

«Aholini ijtimoiy himoyalashning amaldagi mexanizmini tanqidiy baholash va mustahkamlash, uning aniq toifadagi kishilarga qaratilishini kuchaytirish lozim bo‘ladi. Davlat tomonidan aholini ijtimoiy qo‘llab quvvatlash hajmi va miqdorini ko‘paytirish bilan bir vaqtda haqiqatda yordamga muhtoj bo‘lgan

kishilar va oilalargina ijtimoiy yordam olishlari mumkin.

Aholini ijtimoiy himoyalash tizimida yolg‘iz qariyalar, pensionerlar va huzuridagi nogironlarning talablari va ehtiyojlariga alohida e’tibor berish lozim bo‘ladi<sup>3</sup>. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1999-yil 13-yanvardagi «Aholini aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta’minlashda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari rolini oshirish to‘g‘risida»gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 1999 -yil 7-dekabrdagi «2000- 2005-yillarda yolg‘iz keksalarning, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar Dasturi to‘g‘risida»gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2006- yil 7-sentabrdagi 459-sonli qarori bilan tasdiqlangan «2007-2010- yillarda yolg‘iz keksalar va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yanada kuchaytirish choratadbirlari » Dasturi, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining «Fuqarolarning pensiya ta’mnoti tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida», 2009-yil 30-dekabrdagi PF-4161-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Perizontining 2009-yil 30-dekabirdagi «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2010-yil 12-fevralidagi 22- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarining namunaviy Nizomi» yuqoridagi so‘zlarning yorqin dalilidir.

Ushbu farmon va qarorlar aholini ijtimoiy himoya qilishda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini rolini oshirish, ijtimoiy muhofazaning muayyan shaxsga yo‘naltirilganligini ta’minlashda ularning ma’suliyatini yanada kuchaytirish maqsadida qabul qilingan.

Aholini muhofaza qilishning aniq shaxsga qaratilishini yaxshilash uchun turar joy muassasalari bolali oilalarga nafaqalar hamda yolg‘iz o‘zgalar

<sup>3</sup> Karimov I.A.. «O‘zbekiston-bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li».- T: «O‘zbekiston» NMU, 1992-y. 49-b.

parvarishiga muhtoj pensionerlarni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalalarini o'z zimmasiga olgan bo'lsa, yolg'iz keksalarni, pensioner va nogironlarni ijtimoiy ta'minot va uyjoy- maishiy sharoitlarni yaxshilash yuzasidan ehtiyojlarni qondirish masalalarini hal qilish uchun homiylar mablag'larini jalb qilish zarurligi belgilandi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotda bir necha kamchiliklar paydo bo'ladi. Mana shu kamchiliklar va iqtisodiyotdagi salbiy jarayonlarni yo'qotish uchun davlat iqtisodiyotga aralashadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roli quyidagilardan iborat:

- Davlat milliy iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini, sohalarni iqtisodiy jarayonlarni rejali tartibga soladi. Masalan: ishsizlik bilan kurashish dasturlari, qishloq xo'jaligini rivojlantirish dasturlari va hokazolar;
- Davlat iqtisodiyotini rivojlantirishning huquqiy norma va qonunlarini ishlab chiqadi. Masalan: O'zbekistonda antimonopol qonun, bankrotlik to'g'risidagi qonun va hokazolar;
- Davlat milliy iqtisodiyotni boshqarishda har xil ma'muriy chora tadbirdardan foydalandi;
- ijtimoiy sohani boshqarishda ham davlatning roli juda ham katta, u bir qator ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajaradi;
- bozor tizimi samarali rivojlanishi uchun, ijtimoiy adolatni rivojlantirish uchun davlat qonuniy asosni ta'minlaydi;
- mamlakatda yashaydigan fuqorolarning iqtisodiy erkin kurashi va erkin raqobatini himoya qiladi;
- milliy daromad va milliy boylikni ijtimoiy adolatlilik asosida yaratilgan milliy daromadni qayta taqsimlaydi;
- inflyatsiya, ishsizlik jarayonlari ustidan nazorat qilish asosida iqtisodiyotni barqarorlashtirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi;
- aholini bozor iqtisodiyotining salbiy natijalaridan himoya qilish uchun ijtimoiy mexanizmni takomillashtirish.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida ijtimoiy sohalarda davlatning roli har xil. Davlatning ko'p sonli funksiyalari ichidan eng asosiyalaridan biri-davlatning ijtimoiy siyosat fuksiyasidir. Davlatning ijtimoiy siyosati deganda, biz aholining ijtimoiy himoya qilish tizimini bajarish uchun aholini barqaror va yuqori turmush darajasini yaratish uchun davlat tomonidan olib boriladigan chora-tadbirlarning yig'indisini tushunamiz. Amaliyat shuni ko'rsatadiki, davlatning ijtimoiy siyosati har xil davrlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan va shu siyosatning natijalari ham xar xil bo'lgan. Lekin ijtimoiy siyosatning xususiyatlariga qaramasdan biz eng asosiy belgilovchi yo'nalishlarni ajratishimiz mumkin. Bu quyidagilar bilan bog'liq:

1. Moddiy va ma'naviy boyliklarning taqsimlanishi shu maqsadda olib borilishi kerak, u jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlasin.
2. Demografik siyosatni shunday olib borish kerakki, natijada mehnat resurslaridan ratsional foydalanish mumkin bo'lsin.
3. Jamiatning ratsional (unumli) ijtimoiy tarkibini tuzish uchun davlatning ijtimoiy yo'nalishining asosiy vazifasi bo'lib har xil manbalar orqali aholi daromadlarini tashkil etish hisoblanadi.

Ular quyidagi yo'nalishlar orqali tashkil etiladi:

- mehnatga to'lovlar orqali:
- ijtimoiy iste'mol fondlar orqali:
- shaxsiy mulkchilik orqali:
- korxonalarning daromadlari orqali:

Aholi daromadlarining bir qismi mehnat sifati bilan bog'liq bo'lsa, yana bir qismi mehnat sifatiga bog'liq bo'lmaydi.

Respublikada aholini ijtimoiy himoyalash asosan uch yo'nalishda amalga oshiriladi.

Birinchisi, narxlarning erkinlashtirilishi va ularning qadrsizlanishi darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasi muntazam oshib borildi. Bu soha 1993 yil yanvarda joriy etilgan yangi yagona tarif stavkasi barcha xodimlarning mehnat haqi miqdorini tarif koeffitsientlari

orqali eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita o'zaro bog'lash imkonini berdi. Ya'ni eng kam ish haqini oshirish yo'li bilan aholining o'rtacha ish haqini oshirish yo'li bilan aholining o'rtacha ish haqi, pul daromadlari ham o'z-o'zidan ko'tarila boradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2013-yil 15-dekabrdan amal qilib boshlagan qaroriga muvofiq, ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdorini oshirish 0,05 barobar ko'paytirildi. Albatta bu aholi barcha tabaqalarini pul daromadlarining ko'payishini taminlaydi va har yil oshiriladi. Joriy 2014 yilda eng kam ish haqi - 96105so'm (qariyb 34 AQSH dollar)ni tashkil qiladi<sup>4</sup>.

Ikkinchisi, respublikani ichki iste'mol bozorini himoya qilish va aholining oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining muayyan darajasini saqlab turish.

Uchinchidan, aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy jihatdan qo'llab quvvatlash chora-tadbirlari ko'rildi. 1994 yilda aholini ijtimoiy himoya qilishning tenglashtirish tizimidan aniq maqsadli va aholining muxtoj tabaqalarini qamrab oladigan tizimga o'tildi, ya'ni «mahalla» jamiyatি orqali bolalar va kam daromadli oilalarga moddiy yordam ko'rsatiladigan bo'ldi.

---

<sup>4</sup>Norma.uz .

## **1.2.Ijtimoiy siyosatda inson omili va manfaatlarning uyg'unligi.**

Milliy davlatchilikni shakllantirish, demokratik islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni bir holatdan ikkinchi holatga o'tkazish hamda bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy muammolarga alohida e'tibor berish zarur. Jahondagi ko'pgina mamlakatlarning ijtimoiy rivojlanish sohasidagi g'oyat boy tajribasi shundan dalolat beradi. Yangi mustaqil davlatlarning islohot davridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy holatining tahlili ham buni tasdiqlaydi.

Tarix sabog'i shundaki, uning aynan keskin burilishlarida, ijtimoiy formatsiyalar almashinayotganda ijtimoiy muammolar va ziddiyatlar g'oyat keskinlashadi, milliy xavfsizlikka, fuqarolar tinchligiga va barqarorlikka tahdid soluvchi omilga aylanadi.

Bu holni nimalar keltirib chiqaradi, o'tish davrida ijtimoiy barqarorlik masalalariga alohida e'tibor berishning qanday muhim sabablari: Birinchi. Ijtimoiy ziddiyatlar o'z mohiyatiga ko'ra hamisha siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qiladi. O'zgarishlarning qay tarzda — yo izchil, tadrijiy yo'l bilan borishi, yo bo'lmasa, keskin shakllarga kirishi: ijtimoiy noroziliklar, stixiyali portlashlar, hatto fuqarolar urushlari va inqiloblar tusini olishi to'planib qolgan ijtimoiy muammolarning qay darajada keskinligiga, hukmron tuzilmalarning bu muammolarni hal qila olishi yoki hal qila olmasligiga bog'liq.

Shu sababli taraqqiyotning hamma bosqichlarida odamlarning ijtimoiy kayfiyatlarini, ijgamoiy muammolarni nazarpisand qilmaslik barqarorlikka va milliy xavfsizlikka katga xavf tug'diradi.

Ikkinchi. Odamlarni da'vat etuvchi ijtimoiy sabablarning ro'yobga chiqishi juda muhim ahamiyatga molqidir. Odam o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. SHu sababli inson uchun islohotlar jarayonida o'z imkoniyatlarini qanchalik ro'yobga chiqara olishi, islohotlarning mazmuni va maqsadlari

haqidagi tasavvurlari islohotlarning amaliy natijalariga qanchalik mos kelishi goyat katta ahamiyatga molikdir.

O'tish davrining keskin ijtimoiy muammosi ko'p kishilar uchun qaror topgap gurmush tarzining buzilishidan, hayotiy mo'ljallarning, fikrlash tarzi, ijtimoiy fe'l-atvor, boqimandalik kayfiyatining o'zgarishidan iborat. O'tish davrida odamlarning tafakkur yuritish psixologiyasi o'zgaradi, bu esa, ayonki, hamma iaqt ham oson kechavermaydi.

Har qanday mamlakatda turli ko'rinishdagi shngsizliklar ko'paysa yoki ularning o'sishga imkon paydo bo'lsa, ular ijgimoiy barqarorlik uchun xavf tug'diradi. Ijgimoiy muammolarning keskinligi kimlarningdir kambag'alligi yoki boyligida emas, balki ushbu ijgimoiy tabaqalar o'rtasida haddan tashqari katta farq paydo bo'lishidadir. Bu esa beixtiyor ularning qaramaqrashiligiga olib keladi.

Ayonki, agar jamiyat manfaatlari va intilishlari mutlaqo qarama-qarshi bo'lgan odamlar guruhlaridan iborat bo'lsa, hamma vaqt ijgimoiy ziddiyat xavfi, demakki, milliy xavfsizlikka taxdid ham mavjud bo'ladi. Ijtimoiy ziddiyatlarning haddan tashqari keskinlashuvi jamiyatda ijgimoiy barqarorlikning barham topishiga, ichki mojarolarga va hatto fuqarolar urushiga ham olib borishi mumkin.

Shuning uchun ham o'tish davrida demokratik davlatning eng muhim vazifasi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinligini kamaytirishdan, bu davrning muqarrar qiyinchiliklarini ehtiyyot choralarini hisobiga yumshatishdan va odamlarning yangi turmush sharoitlariga moslashishini osonlashtirishdan iborat. Aslini olganda, O'zbekiston amalga oshirayotgan siyosatning bozor munosabatlariga o'tayotgan boshqa davlatlar siyosatidan, eng muhim afzalliklaridan biri ham shundadir.

Ijtimoiy kelishuvni qanday ta'minlash mumkin, ijgimoiy hamjihatlikka, shu jumladan millatlararo totuvlikka qanday erishish mumkin, degan murakkab savollarga javob topishga qodir bo'lgan davlat demokratik va iqtisodiy rivojlanishga umid bog'lashi mumkin.

Ijtimoiy birdamlikni ta'minlash - ijtimoiy ziddiyat va tengsizliklarning o'zlariniadolatsiz ravishda hamma narsadan bebahra bo'lib qolgan yoki haq-huquqlari kamsitilgan deb hisoblovchi butun-butun aholi guruhlari va tabaqalari vujudga keladigan darajaga borib yetmasligiga erishish demakdir.

Shu boisdan ham O'zbekistonning o'z yangilapish va taraqqiyot yo'liga asos qilib olingan stakchi tamoyillardan biri kuchli ijgimoiy siyosatni amalga oshirishdan iboratdir. Bu demokratik va iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning, ular orqaga qaytmasligining juda muhim sharti va garovidir.

Islohotlar chuqurlashib, bozor iqtisodiyoti gomon ilgarilab borilgan sari ijtimoiy siyosatning ustuvor jihatlari ham, aholini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash choratadbirlari ham o'zgarib bormoqtsa. Turli bosqichlarda davlat tomonidan tartibga solish usullari va uslublarining keng vositalaridan foydalanilmokda. Bular orasida muntazam suratda qayta ko'rib turilgan ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalarning miqdoridan iborat bevosita pul to'lovlari ham, imtiyozlar, tovon to'lovlari, dotatsiyalar va subsidiyalar sifatidagi bavosita pul to'lovlari ham bor.

Bozor munosabatlariga o'tishning ilk davrida biz oldindan butun aholini ijgimoiy himoyalaga yo'lidan bordik. Bu chora-tadbirlar odamlarning turmush darjasini keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o'yndi. Respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlab qolish omili bo'ldi.

Islohotlarning dastlabki yillarida himoya chorasi sifatida iste'molchilarga subsidiyalar berish tizimidan va iste'mol bozorini asosiy oziq-ovqat tovarlari mamlakatdan tashqariga chiqib ketishidan himoyalashning turli shakllaridan keng foydalanildi.

Biz aholini ijtimoiy himoyalashni yaxshilash, uning samarasini ko'tarish quyidagi muhim vazifalarni hal etishga bog'liq deb bilamiz.

Bu — ishlab chikarishni barqarorlashtirish va muttasil rivojlantirish. Pul qadrsizlanishiga qarshi samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, milliy valyutani va ichki iste'mol

bozorii musthkamlash natijasida islohotlarning boshlanich bosqichidayoq turmush darajasini saqlab qolish va uning keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik imkoni yaratildi.

Bu — davlat mablag'lari bilan bir katorda mehnat jamoalari, jamoat va xayriya tashkilotlari va jamg'armalarining mablag'larini keng jalg etish.

Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining huquqlari ancha kengaytirilishi hamda mas'uliti oshirilishi lozim. Ular mintaqalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda aholinip ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasida qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga haqlidir. Mahalliy organlarning asosiy vazifasi —odamlarga o'z farovonliklarini yuksaltirish maqsadida mehnat qilish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishdan iborat.

Ijtimoiy siyosat, uni amalga oshirish mexanizmlari odamlarning mehnatdagi faolligini va tadbirkorligini o'stirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilishi darkor.

Bu — odamlarning kuch va kobiliyatlari tula-tukis faollashuvini ta'minlashga qodir bo'lgan kuchli mexanizmni vujudga kel-tirish. Bu mexanizmni birinchi navbatda, har bir kishining iqtisodiy erkinligi, uning o'zi va oilasining baxt-saodati uchun iqtisodiy javobgarligi bilan uyg'unlashadigan shart-sharoitlarni yaratish hisobiga shakllantirish lozim. O'z qobiliyat va mehnatiga tayanib ish tutish — farovonlikning birdan bir va eng barqaror manbai bo'lib qoladigan munosabatni vujudga keltirish. Buning uchun xususiy mulk institutining rivojlanishini tezlashtirish juda muhim. Bozor sharoitlariga moslashish hozirgi kunning o'zidayoq aholi jami daromadining ancha qismi tadbirkorlik faoliyati hamda mulkdan kelgan daromad hisobiga vujudga kelishini ta'minlamoqda.

Albatta, murakkab o'tish davrida boshqa ko'p-gina muhim vazifalar qatori, xalqimizning bugungi va ertangi hayoti, uning ma'naviy ola-miga zarar yetishiga, ijtimoiyadolat tamoyil-larining buzilishiga, jumladan, aholining bir qismi o'ta boyib, aksariyati o'ta qashshoklikka yuz tutishiga yo'l

qo'ymaslik masalasi ham doi-mo diqqat-e'tiborimiz markazida turdi.

Aslida, har qanday islohotning eng muhim samarasi avvalo xalqning ma'naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish jarayonlari, uning ongu tafakkurining yuksalishi, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar uning hayotiga, taqdiriga daxldor bo'lganini chuqur his qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanadi. Biz amalga oshirilayotgan islohotlarimizda ana shunday natijalarga erishish uchun barcha o'zgarish va yangi-lanishlarning markaziga inson va uning man-faatlarini qo'ydik. Shuning uchun ham bugungi kunda ana shu jarayonlarning mohiyatida **islohot— islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat** qilishi kerak, degan maqsad mujassam ekanini va uning ama-liy ifodasini barcha sohalarda ko'rish, kuzatish qiyin emas.

Agarki biz mustaqillikka erishganimizdan so'ng bosqichma-bosqich rivojlanish yo'lini emas, balki «shok terapiyasi» deb nom olgan inqilo-biy sakrash yo'lini tanlasak, eng qiyin vaziyat-larda aksariyat aholimiz qanday ahvolga tushib qolgan bo'lar edi? Hech shubhasiz, stixiyali tarz-da yuz beradigan shiddatli o'zgarishlar to'fonida odamlarning moddiy turmush sharoiti keskin yomonlashib, ularning hayot tarzi, axloqiy qad-riyatlari, milliy-ma'naviy qiyofasi butunlay izdan chiqib ketishi hech gap emas edi. Bir so'z bilan aytganda, bunday biryoqlama siyosat hech kutilmagan oqibatlarga, o'rnini yuz yillarda ham to'ldirib, qoplab bo'lmaydigan og'ir yo'qotishlarga olib kelishi muqarrar edi.

Shuning uchun ham biz, chetdan har qancha taklif va tavsiyalar, hatto talablar bo'lmasin, hech qachon inqilobiy sakrashlar yo'lidan bormadik. Yurtimizdagи bugungi tinch va osoyishta, bunyodkor hayot, barqaror taraqqiyot bunday yondashuvning naqadar to'g'ri bo'lganini va uzoqni ko'zlaganini ko'plab sohalardagi ijobiy natijalar miselida tasdiklab bermoqda. O'sha mas'uliyatli pay'larda, biz keskin ijtimoiy larzalarga olib keladigan har qanday inqilobiy harakatlarga qarshimiz, bizning tadrijiy rivojlanish tamoyillariga asoslangan o'z yo'limiz bor va bu yo'ldan hech qachon

qaytmaymiz, deb aytgan qat'-iy so'zimiz, mustahkam pozitsiyamiz albatta bu-gug' o'z hosilini bermoqda.

Bizning islohotlar davomida nainki moddiy farovonlikka, ayni paytda ma'naviy yuksalishga ham erishishni o'zimiz uchun asosiy mezon deb bilganimiz umumiy taraqqiyotimizda bir tomon-ga og'ib ketmaslik, jamiyat hayotida suv bilan havodek zarur bo'lgan muvozanat va barqarorlik-ni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. CHushsi bozor iqtisodiyoti hamma narsani joyiga qo'yadi, degan yengil-elpi qarashga itoat qilib, faqat moddiy boylik ortidan quvish — xalqimizning azaliy orzu-tilishlariga ham, in-sog'kylik bilan yo'g'rilgan milliy qadriyatla-rimiz mohiyatiga ham to'g'ri kelmas edi. Shu bois islohotlarni amalga oshirishda ma'naviyat va iqtisodiyot bir-birini inkor etmaydi, aksin-cha, bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib, rivojlanib boradi, degan qoidani o'zimiz uchun dasturilamal sifatida belgilab oldik.

1 Ma'naviyat va iqtisodiyot sohasining minglab hayotiy masalalar, ta'bir joiz bo'lsa, jonli rishtalar orqali o'zaro chambarchas bog'lanib ketganini inobatga olib, xalqimizning ruhiya-ti, turmush tarzi, qadimiy urf-odat va an'analarimizga har tomonlama mos bo'lgan islohotlar yo'lini tanladik.

Ayniqsa, o'tish davrida davlatning bosh is-lohotchi sifatidagi rolini islohotlarni jo-riy etishning asosiy shartlaridan biri tari-qasida qat'iy belgilab olganimiz iqtisodiyotning universal talab va mezonlarini milliy ma'naviyatimiz xususiyatlari bilan uyg'unlashti-rishda g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi.

Ma'lumki, mustabid tuzum davridagi iqtisodiyot biryoklama rivojlangan, ma'muriy-buy-ruqbozlik usuliga asoslangan bo'lib, xalqning ma'naviy qarashlari va tilishlaridan yiroq edi. Ana shunday mushkul bir vaziyatda davlatning islohotchilik rolini tan olmaslik, bu masalani o'zibo'larchilik holatiga tashlab qo'yish — eski tizimdan qolgan nochor va xasta iqtisodiyot o'z-o'zidan erkin bozor iqtisodiyotiga, sovet jamiyat esa demokratik jamiyatga aylanib qoladi, deb xomxayol qilish bilan barobar edi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, demokratiya avvalambor ma'naviy mezonlar asosida boshqariladigan, kuchli huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati demakdir. Aytish mumkinki, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati demokratianing o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan ikki jihat, ikki qanotidir. Aynan shu bois biz «Kuchli davlatdan — kuchli jamiyat sari» kontseptsiyasini iilab chiqdik va bu g'oyani izchil amalga oshi-ri l masalasiga birinchi darajali ahamiyat qara-tib kelmoqdamiz.

E'tiborli tomoni shundaki, islohotlarning das tlabki bosqichidan boshlab hozirga qadar keng ko'lamli siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy dastur va rexalarimizning barchasida xalqimizning ma'na-viy hayoti bilan bog'liq masalalar alohida ustuvor yo'nalish sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Tabiiyki, bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tish jarayonida odamlar ongida, jamiyat maf-kurasida tub o'zgarishlar sodir bo'ladi. Biroq, ba'zi birovlarining hadiksirab, erkin bozor sha-rotida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning qimmati tushib ketadi, madaniyat ikkinchi da-raxali narsaga aylanib qoladi, degan xavotir-lari o'rinsiz ekani O'zbekistonligi bugungi o'zga-rishlar misolida yana bir bor yaqqol ayon bo'lmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda davlat byudje-tining 50 foizdan ziyodi ijtimoiy sohaga yo'naltirilgani ham buni tasdiqlaydi.

### **1.3.O’zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish tamoyillari.**

Aholini ijtimoiy himoya qilish siyosati konstitutsiyaviy tamoyillarga asoslangan holda boqimandalik va davlatning yalpisiga ijtimoiy ta’minalashidan aholining ijtimoiy yordamga haqiqatan ham muhtoj bo‘lgan real zaif qatlamlarini (pensionerlar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko‘p bolali oilalar va b.) aniq yo‘naltirilgan (manzilli) tarzda qo‘llab-quvvatlashga o‘tishga asoslangan holda yanada rivojlantirilishi lozim<sup>5</sup>.

O’zbekiston Respublikasining iqtisodiy siyosatida aholi turmush darajasini yaxshilash muhim o’rin tutadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda aholini kuchli ijtimoiy himoyalash bozor iqtisodiyotiga o‘tishning besh tamoyilidan biri sifatida belgilangan.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida moddiy jihatdan kam ta’milangan aholi manfaatlarini ko’zlab, ularni davlat, korxona va tashkilotlar o’z zimmasiga oladi. Bu bozor munosabatlari tizimiga o‘tish jarayonidagi eng muhim muammolardan biridir. Bozor munosabatlariga o‘tishning dastlabki oqibatlari narx-navoning ko’tarilishi va ishsizlikning oshishidan iborat bo’ldi. Bundan birinchi navbatda aholining kambag’al va iqtisodiy jihatdan zaifroq tabaqalari ko’proq zarar ko’rdi. 90-yilga kelib O’zbekistonda jon boshiga eng past daromad to’g’ri keladigan kishilar soni umumiy aholining 45 foizini, ya’ni 9 millinodan ortiq kishini tashkil etgan edi<sup>6</sup>.

O’zbekiston mustaqillikni e’lon qilgan dastlabki davrdayoq ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishini jahonga ma’lum qildi va aholini ijtimoiy jihatdan har tomonlama qo‘llab-quvvatlash tamoyili birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov strategiyasining asosiy qoidalaridan biriga aylandi.

<sup>5</sup> Tursunov Y. Ijtimoiy ta’minot huquqi. (Kasb-hunar kollejlari uchun o’quv qo‘llanma). - T: «O‘qituvchi» NMIU, 2005- y. B-6.


<sup>6</sup> Ergashev T. Bozor iqtisodiyoti. T.: «O‘qituvchi», 2002, 111-bet.

O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazilishi davr taqozosi edi, desak hato bo'lmaydi. Chunki respublikamiz Sobiq Ittifoq respublikalari ichida oxirgi o'rirlardan birida edi.

Aholining katta qismi, ayniqsa, qishloq aholisi jamiyatda rasman e'tirof etilgan qashshoqlik darajasida yashardi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1989 yilda jon boshiga hisoblanganda respublikadagi oilalarning 44 foizining pul daromadining rasman belgilangan eng kam ish haqidan ham oz edi.

Bunday sharoitda kuchli ijtimoiy kafolatni vujudga keltirmay turib, o'tkazilgan islohot barbod bo'lishi muqarrar edi. Bozor iqtisodiyotiga ziddiyatlarsiz, silliqqina o'tib bo'lmasligini oldindan ko'ra bilgan birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov: «Jamiyatning sifat jihatdan yangi holatga o'tishida bizga islohot chog'ida odamlar moddiy ahvoli yomonlashadigan, o'tish davrining barcha qiyinchiliklari aholi yelkasiga tushadigan andoza maqbul emas»<sup>7</sup>, - deb ta'kidlagan edi.

Quyida keltirilgan chizmada aholini ijtimoiy himoya qilishning O'zbekistonda mustaqillik yillarda olib borilgan va yaqin kelajakda ham saqlanib qolajak yo'nalishlari keltirilgan.



<sup>7</sup> Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariiga o'tishning o'zga xos yo'li. T.: «O'zbekiston», 1993, 73-bet.

Daromad siyosati haqida gap ketar ekan, avvalambor, totalitar tizim paytida shakllanib qolgan boqimandalikning har qanday ko'rinishlariga barham berish zarurligini ta'kidlab o'tish lozim. Ma'lumki, iqtisodiy tizimda daromadlar bir tekisda taqsimlanib, kishilarni iqtisodiy jihatdan baravarlashtirishga intilish yetakchi o'rinda turardi, boy bo'lish ta'qiqlanardi, daromadlar ma'lum miqdor bilan cheklanardi. Bunday sharoitda xalqimiz «davlat va hukumat, korxona va ho'jalik bor ekan, ular hammasini o'ylaydi va bizni kulfatda qoldirmaydi», deb o'z imkoniyatlarini to'la-to'kis ishga solmasdan boqimandalik kayfiyatida yashab keldilar.

Bozor munosabatlari sharoitida olingan daromadlarni taqsimlash tenglikni emas, balki tengsizlikni keltirib chiqaradi. Bu esa o'z navbatida tovar va xizmatlarni yaratishning o'sishi uchun kuchli rag'bat bo'lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlarning yuqori darajasi cheklanmagan bo'lib, ularni har bir insonning mehnat natijalari va sifatiga qarab taqsimlash tizimi hukmronlik qiladi.

Daromatning qobiliyat, bilim, malaka, mahorat va umuman, salohiyatga qarab taqsimlanishidan kelib chiqqan tengsizlik tabiatanadolatli hisoblanadi. Yaxshi ishlagan ishchi yoki xizmatchining ko'p daromad topishi tabiiy, chunki u hayotiy ne'matlarni ko'p va sifatli yaratgani uchun ularni ko'proq o'zlashtirishi kerak.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat turli iste'mol mollari, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari narxlariga dotatsiyalar o'rnatadi, ya'ni ularni haqiqiy bahosidan kamroq narxlarda sotishni nazarda tutadi. Bunday dotatsiyalar aholining muayyan qatlamlarini emas, balki barcha fuqarolarni ijtimoiy himoyalash maqsadida joriy etilib, davlat byudjetiga anchagina og'ir yuk hisoblanadi. Aholi daromadlari darajasida keskin tabaqlashuvga yo'l qo'ymaslik choralar davlatning diqqat markazida turuvchi masalalardan

<sup>8</sup> Ergashev T. Bozor iqtisodiyoti. T.: «O'qituvchi», 2002, 112-bet.

hisoblanadi<sup>9</sup>. Shuni nazarda tutish kerakki, gap adolatsiz daromatlar to'g'risida borayapti. Katta daromad faqat halol va unumli ish natijasi evaziga bo'lishi kerak. Nopok yo'l bilan daromad topuvchilar davlat nazoratida bo'ladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida birmuncha rivojlanib ketgan nopok daromad topish yo'llari bu tizim madaniylashib borgan sari tobora barham topib boradi va adolatli daromadlar salmog'i ortib boradi.

Daromad siyosati sohasida indeksatsiya muhim rol o'ynaydi. Aholi daromadini indeksatsiya qilish deganda, aholi buyumlari va xizmatlarning qimmatlashgan bir qismini yoki to'la qismini qoplash uchun fuqarolarning daromadini oshirish tushuniladi. Indeksatsiya bir yo'la beriladigan ish havi, nafaqa, stipendiya va boshqa turdag'i daromadlarning darajalarini qayta ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi. Jahon amaliyotida indeksatsiyaning avtomatik va yarim avtomatik usullari mavjud.

Indeksatsiyaning avtomatik usulida ish haqi baho indeksining o'sish sur'atiga munosib ravishda oshiriladi va aholi daromadining zarar ko'rgan qismi to'la qoplanadi. Ammo bu usul ish haqining samarali tashkil qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki bunda ish haqining oshishi mehnat unumдорligi bilan bog'lanmagan holda amalga oshiriladi<sup>10</sup>.

Yarim avtomatik usulda bahoning oshishini hisobga olgan holda ish haqini qanchaga oshirish uch tomon (davlat, kasaba uyushmasi va ishlovchilar) ishtirokida shartnoma tuzish yo'li bilan yechiladi.

Indeksatsiyani amalga oshirishda «iste'mol savatchasi» tarkibini aniqlash zaruriyati tug'iladi. Insonga zarur bo'lgan oziq-ovqat, sanoat mollari va xizmatlarning tirikchilik uchun kifoya qiladigan hajmi «iste'mol savatchasi» deb ataladi.

Aholining shunday qatlamlari borki, ular qanchalik faollik qilmasinlar, o'z daromadlarini oshira olmaydilar. Bular qatoriga nafaqaho'rlar, bolalikdan nogironlar, urush nogironlari, ishsizlar, ko'p bolali oilalar, mehnatda turli baxtsiz hodisalarda mayib bo'lgan fuqarolar kiradi.

<sup>9</sup> Ergashev T, Ismatov R. Iqtisodiy savodxonlik asoslari. T.: «Sharq», 2001, 22-bet.

<sup>10</sup> Karimov I.A. Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T.: O'zbekiston, 1996, 41-bet.

Respublika mustaqilligi qo'lga kiritilgan dastlabki kunlardan boshlab hukumatimiz bu toifadagi aholiga alohida e'tibor berib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qtganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega»<sup>11</sup>, \_ deb ta'kidlanadi.

Nafaqaxo'rlarni ijtimoiy himoyalash maqsadida ularga beriladigan nafaqalar kompensatsiya to'lovlari tarzidagi bevosita pul to'lovlari bilan birga imtiyozlar va turli dotatsiyalar tarzidagi bevosita to'lovlari ham keng qo'llanilmoqda. Masalan, nafaqaxo'rlardan soliq olinmaydi va ijtimoiy ahvoli e'tiborga olinib, ular oladigan nafaqaning mutlaq miqdori ish haqining eng kam miqdoridan ortiq bo'lishiga muttasil harakat qilinmoqda.

Respublikamizga nogironlarga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Nogironlar yer yuzidagi jami aholining 7,5 foizini tashkil qiladi. Mamlakatimizda esa bu ko'rsatkich 2,5 foiz atrofida. Ularning har biriga nafaqa va boshqa imtiyozlar Bilan bir qatorda o'rtacha 2-3 minimal ish haqi miqdorida yordam berib kelinmoqda.

Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan «nafaqa to'g'risida»gi, «Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi qonunlar ularning haq-huquqlarini qonun yo'li bilan himoya qilishga qaratilgandir. Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, ularga davlat tomonidan madad berish tizimi muttasil takomillashtirib borilmoqda. 1994 yilning oktabr oyidan boshlab kam ta'minlangan oilalarga davlat nafaqasi joriy etildi. Bu nafaqa eng kam ish haqi miqdorining 1,5 - 3 baravariga tengdir.

Kam ta'minlangan oilalarga ko'rsatiladigan yordamni taqsimlash fuqarolarning mahalliy o'zni-o'zi boshqarish organlari - mahallalar zimmasiga yuklatilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda istiqomat qiluvchi oilalarning 10-12 foizi nafaqa olmoqda.

---

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiton», 2013, 10-bet.

Shunday qilib, mamlakatimizda ijtimoiy himoyalashning noyob tizimi shakllandi va amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda aholiga ijtimoiy hizmatlar ko'rsatish sohasida ijtimoiy himoyaning quyidagi yo'naliishlari ustivor hisoblanadi:

\_ islohotlarning birinchi bosqichida sog'liqni saqlash, maorif va madaniyat sohasida yaratilgan tizimni yanada rivojlantirish;

\_ davlat tomonidan sog'liqni saqlash muassasalarini dori-darmonlar, vaksinalar va boshqa tibbiy ashyolar bilan ta'minlash, kasallanish, o'lim va bolalar o'limi ko'payishining oldini olish;

\_ ijtimoiy sohani davrlat tomonidan pul bilan ta'minlashning kamayishiga yo'l qo'ymaslik, uni byudjetdan tashqari mablag'lar bilan ta'minlashning bozor mexanizmini yaratish;

\_ maorif va sog'liqni saqlash tizimida bozor o'zgarishlarini jadallashtirish va xodimlarning o'z mehnati natijalaridan moddiy manfaatdorligini yuksaltirish choralarini amalga oshirish.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ijtimoiy soha - sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, shuningdek, ilm-fan, ayniqsa, mushkul ahvolga tushib qoladi. Shu sababli mamlakatimizda aynan shu sohalarni ustivor darajada rivojlantirish, ularda ishlovchilarning mehnatiga munosib baho berish va ularni kuchli ijtimoiy himoyalash siyosati amalga oshirilmoqda. O'tgan 22 yillik mustaqil taraqqiyotimiz davomida mamlakatimiz erishayotgan natija va marralar haqidagi ko'rsatkichlar yurtimizda bo'layotgan mislsiz o'zgarishlar to'g'risida aniq tasavvur beradi.

Ana shu davrda O'zbekiston iqtisodiyoti 4,1 barobar o'sdi. Agarki mamlakatimiz aholisi ayni shu davrda qariyb 9,7 millionga ko'payib, bugungi kunda 30 million 500 mingga yaqin kishini tashkil etayotganini hisobga oladigan bo'lsak, axoli jon boshiga nisbatan o'sish 3 barobardan ziyodni tashkil etishi bizning naqadar ulkan taraqqiyot yo'lini bosib o'tganimizdan dalolat beradi. Jahon miqyosida hali-beri davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning jiddiy ta'siriga qaramasdan, mamlakatimiz yalpi ichki

mahsulotining yillik o'sishi 2008-2013 yillarda 8 foizdan oshdi, 2014 yilda esa bu ko'rsatkich 8,1 foizni tashkil etadi. Bunday o'sish sur'atlarini kamdan-kam davlatlarda kuzatish mumkin.

O'tgan davr mobaynida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mutanosibligi, davlat byudjetimizning profitsit bilan, ya`ni oshirib bajarilishi ta`minlanmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda axolining real yalpi daromadlari jon boshiga 8,2 barobar oshganining o'zi xalqimizning hayot darajasi tobora o'sib borayotganidan dalolat beradi. O'zbekistonning tashqi davlat qarzi yalpi ichki maxsulotga nisbatan 16 foizdan oshmayapti, eksport va oltin-valyuta zaxiralarimiz hajmi ko'payib bormo?da.

Istiqlol yillarida mamlakatimiz iqtisodiyotida dollar hisobida 162 milliarddan ortiq kapital mablag' o'zlashtirilgan bo'lib, buning 56 milliard dollardan ziyodi xorijiy investitsiyalardir. Faq'atgina 2013 yilning o'zida kapital investitsiyalar hajmi dollar hisobida qariyb 14 milliardni yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 23 foizni tashkil etadi.

Bularning barchasi avvalo iqtisodiyotimizdagи ijobiliy tarkibiy o'zgarishlar natijasi, yangitdan ishga tushirilgan, jahon bozorida talab katta bo'lgan raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarayotgan yuzlaб, minglab zamonaviy korxonalar demakdir. Bugun bir fikrni hech ikkilanmasdan, to'la ishonch bilan aytishimiz mumkin: O'zbekiston tarixan qisqa muddatda iqtisodiyoti biryoqlama rivojlangan, asosan paxta xomashyosi etkazib berishga moslashgan, paxta yakkahokimligi halokatli tus olgan qoloq respublikadan tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan zamonaviy sanoat tarmoqiga ega bo'lgan, jadal taraqqiy etayotgan mamlakatga aylandi. Buning yaqqol tasdg'i - mamlakatimizning yalpi ichki mahsuloti tarkibida sanoatning ulushi 1990 yildagi 14,2 foiz o'rniga bugungi kunda 24,3 foizni tashkil etgani, ayni paytda qishloq xo'jaligining ulushi esa 34 foizdan 17 foizga kamayganidir<sup>12</sup>.

---

<sup>12</sup> Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizning yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini qurish – yorug' kelajigimizning asosiy omilidir //I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruzasi //Xalq so'zi, 2013 yil 7 dekabr

## **II bob Mustaqillik yillarda O'zbekistonda mehribonlik uylarini tashkil qilish va qo'llab-quvvatlash masalalari.**

### **2.1. Mehribonlik uylrida ijtimoiy ish tashkil qilishning metod va uslublari.**

Yetimlik ilohiy bir qismat shuning uchun ham inson peshonasida yozilganini ko'rishi taqdiri azaldir. Darhaqiqat, taqdir qismatidan qochib qutilib bo'lmaydi. Ana shunday qismat norasida go'dakni "Mehribonlik uyi"ga yetaklab keladi. Mehribonlik uylari sobiq sho'rolar davrida yetim xonalar nomi bilan paydo bo'lgan. Bu davrda minglab oilalarning xonavayron bo'lishi oqibatida yetim va qarovchisiz qolgan bolalarni boqish va ularni jamiyatga sodiq farzand etib tayyorlash maqsadida tashkil etilgan edi. Bugungi kunda esa Mehribon, xalqsevar, birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ularni o'z bag'riga olishi natijasida "Mehribonlik uylari" nomi bilan yuritilmoxda. Alovida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgandan buyon Mehribonlik uylariga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida quyidagilar qayd etilgan: Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi hamda Mehribonlik uylari davlat tomonidan quyidagicha ta'minlanadi:

1. Ma'nan va ruhan qo'llab quvvatlanadi
2. Ta'lim–tarbiya jarayoni alohida e'tiborga olinadi
3. Ijtimoiy–iqtisodiy jihatdan moddiy tomonidan to'liq ta'minlanadi.
4. Tarbiyalanuvchilarning sog'ligiga alohida e'tibor beriladi va tibbiy shartsharoitlar yaratiladi.
5. Tarbiyalanuvchilarning barcha shart – sharoitlariga alohida e'tibor beriladi.

6. Ma’naviy-ma’rifiy tomonlariga zamin yaratiladi.

7. Tarbiyalanuvchilar o’qish faoliyati bilan shug’ullanishi va bo’sh paytlarini mazmunli o’tkazishlari uchun barcha sharoitlar yaratiladi.Ushbu fikrlar shuni ma’lum qiladiki, Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini doimo boshini silashga mehribon qo’llar borligini hamda vatanimiz,mehribon yurtboshimiz ularga g’amxo’r ekanligidan dalolat beradi.

Shu o’rinda Ta’lim to’g’risidagi Qonunning 22-moddasini keltirmoqchimiz. Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o’qitish va ularni boqish davlatning to’la ta’mintoni asosida qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi<sup>13</sup>. 10. (26 .26) Shuning uchun ham tarbiyalanuvchilarining huquqlari qonunda ko’rsatilgan tegishli huquqlari asosida himoya qilinadi.Bizga ma’lumki, Mehribonlik uylariga mustaqil yuridik shaxs maqomi berilgan. Boshqa davlat tashkilotlariga mustaqil ish olib borishda qanday huquqlar berilgan bo’lsa, Mehribonlik uylariga ham ana shunday maqom berilgan. Mehribonlik uylari ham mustaqil ravishda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda ish yurita oladi. Ishonch bilan shuni ayta olish mumkinki, O’zbekiston respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon juda ko’p samarali ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik yillarda Mehribonlik uylariga yanada yaqindan yondashish maqsadida qarorlar qabul qilinib,ular amalda o’z ijrosini topdi.

Masalan, Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 18-fevralda 59-sonli qarori aynan “Mehribonlik uyi” to’g’risida qabul qilinib,u o’zining amaldagi ijrosini ta’minladi. Ushbu tarixiy qaror har tomonlama muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bu qaror o’zbek xalqiga xos bo’lgan milliy qadriyatlarimizni, an’analaramizni o’zida namoyon etib,ajdodlarimiz merosiga asoslanadi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga har tomonlama yordam bera oladi va ahamiyat kasb eta oladi. Vazirlar Mahkamasining ushbu qarorining amaldagi ijrosini ta’minlash maqsadida “Mehribonlik uyi to’g’risidagi Nizom” qabul

---

<sup>13</sup> Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotining poydevori.T: “Sharq nashriyoti”1998. 63 bet.

qilindi. Ushbu nizom yetti qismdan iboratdir, ya’ni ular quyidagilar:

- Umumiy qoidalari
- O’quv - tarbiya jarayoni tuzilmasi va uni tashkil qilish.
- Tarbiyalanuvchilar.
- Kadrlar.
- Mehribonlik uyini boshqarish.
- Moliyaviy-xo’jalik faoliyati.
- Xalqaro hamkorlikda qatnashish.<sup>14</sup>

2007-yilni “Ijtimoiy himoya yili” deb e’lon qilinganligi munosabati bilan hamda aholini ijtimoiy himoya qilish ko’lamlarini yanada kengaytirish va kuchaytirish, aholining muhtoj oialalari va oilalarga, nogironlar va yolg’iz keksalarga aniq, tabaqalashtirilgan tarzda yordam ko’rsatish samaradorligini oshirish, aholi daromadlari darajasidagi farqlarni keskin oshishiga yo’l qo’ymaslik, jamiyatda hamjihatlik, ezgulik va mehr-shafqat muhitini qaror toptirish bo’yicha aniq maqsadga yo’naltirilgan chora tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida: “Ijtimoiy himoya yili” davlat dasturi tasdiqlandi. Bu ham bugungi kunda davlatimizning g’amxo’rligi namunasidir. Dasturning mohiyatiga e’tibor qaratamiz. Ushbu dasturda Mehribonlik uylari haqida shunday ko’rsatilgan.

“Mehribonlik uylari” va ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining moddiy- texnika bazasini, boquvchisidan mahrum bo’lgan bolalar to’g’risida e’tibor va g’amxo’rlikni kuchaytirish, “Sen yolg’iz emassan” maqsadli vazifasini hayotga aniq tadbiq etishdan iboratdir.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 17 oktabrdagi “Mehribonlik uyi to’g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 230-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning tub mohiyatiga to’xtaladigan bo’lsak unda Mehribonlik uylariga bugungi kunda davlatimiz va yurtboshimizning g’amxo’rligi hamda ularning tarbiyasi va ta’limiga e’tibor va takomillashtirish

---

<sup>14</sup> Vazirlar Mahkamasining 1995yil 18-fevraldagi 59-sonli Qaroriga 3-ilova “Mehribonlik uyi to’g’risida Nizom”, “Ma’rifat gazetasi, 1995 yil 29-mart.”

yo'llari aytib o'tilgan. Bularning barchasi Mustaqillik mevasidir. Ushbu yillarda olib borilgan kuchli ijtimoiy siyosatning belgisi hisoblanadi. Islohatlarning ikkinchi bosqichida kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish yuqori darajaga ko'tarildi.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni shakllanishida olib borilayotgan islohatlarni amaldagi ijrosi ham ta'minlanib borilmoqda. Bularning barchasi Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni shakllanishida yordam beradi. Bugungi kunda Mehribonlik uylarida faoliyat ko'rsatayotgan har bir xodim albatta bularga yaqindan yondasha olmog'i lozim. Shuningdek, o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarishda to'g'ri yondasha olib, tarbiyalanuvchilarning yaqin o'rtog'iga aylanishi shart. Bu borada albatta ulardan samimiylilik va o'z kasbiga faollikni talab etadi. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni shakllanishida o'zaro bog'liqlikda bir necha tizim muhim ahamiyat kasb etadi. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni shakllantirish va tarbiyalash asosiy masalalardan biridir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu masalalar bugungi kunning dolzARB masalalaridan biridir.

## **2.2.Mehribonlik uylari o'quvchilarini tarbiyalashda ijtimoiy ish xodimlarining dolzarb vazifalari.**

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning puxta asoslangan mexanizmini yaratish, keng jamoatchilik e'tiborini mazkur masalaga tortish, bu borada samarali sanalgan omillarni aniklash, yangi imkoniyatlarni izlab topish muammolarini hal etishga bulgan ehtiyojning dolzarbligini asoslaydi. Tarbiyalanuvchilarni jamiyatning yetuk a'zolari sifatida ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash, ular tomonidan muayyan kasb yoki xunar sirlarini o'zlashtirilishiga erishish, keskin raqobatlarga bardosh bera oladigan darajada ruhan kamol topishlari uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini belgilash tadqiqot muammosi sifatida tanlangan muammoning yechimlari bo'la oladi.

Yetim va ota-onas qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyasi muammosi bugungi kunda butun dunyoni tashvishga solayotgan muammoga aylanib bormoqda. Ayni davrda ko'pgina mamlakatlarda deinstitutsionalizatsiya muammosi ijtimoiy himoya tizimi e'tiborining markaziga chiqmoqda. Ya'ni maxsus muassasalarda bolaning shaxsiy xususiyatlari va xulq-atvori shakllanish muammosi bog'liq bolani joylashtirishning qulay sharoitlari va to'liq rivojlanishidagi imkoniyatlarining samarali shakllanishini ishlab chiqish, ularni hayotini yaxshilash, shu bilan birga har tomonlama me'yorda rivojlanishi uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berish; bolalni barcha huquq va manfaatlarini himoyalashga qaratilgan tadbirlarning kasbiy salohiyat bilan amalga oshirilishini ta'minlanishi masalasi keng amaliy ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Nafaqat O'zbekiston balki hamjihatlik davlatlarida qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan bolalarni umumtarbiyaviy muassasalarga topshirish va u yerda bolalni jamoatchilik tarzida tarbiyalash, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib berish an'anasi keng joriy qilib kelinadi. Shunga muvofiq jahon ilmiy dunyosi namoyondalari aynan mazkur instituttsionalizatsiyalashgan muassasalarda bolar yashaydigan sharoit va hayot

tarzining bolalar ruhiyatiga nechog'lik ta'siri majudligini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlari natijasi yetim va ota-onalarning qolgan bolalarning o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi haqidagi ilmiy tasdiqlangan xulosalarning paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Jumladan, mehribonlik uyi kabi instituttsionalizatsiyalashgan muassasalarda tarbiyalanayotgan bolaring to'liq rivojlanishi uchun olib borilayotgan ham pedagogik, ham psixologokorreksion tadbirlarning salmog'i to'liq oila tarkibida o'sib-ulg'ayib kelayotgan tengdoshlari bilan olib borilayotgan ham pedagogik, ham psixologokorreksion tadbirlarning salmog'i orasida katta tafovutlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

1.Ijtimoiy, otalik va onalik deprivatsiyasi instituttsionalizatsiyalashgan sharoitlarda ilmiy-uslubiy yondashuvlarning qay darajada sifatli bo'lishdan qat'iy nazar mazkur tarbiya muassasalarini bitirib chiqayotgan bolalarning hayotga moslashuvi va jamiyatga samarali integratsiyalushuvi jarayonida o'ziga xos kemtiklikni yuzaga keltirayotgani bejiz emas. Chunki to'liq va axloqlan, ma'nан yetuk oilada o'sayotgan bola uning zaminida mavjud bo'lgan axloqiy me'yorlarni, ijtimoiy rol va munosabatlarni, xo'jalik yuritish ko'nikmalarini, kelgusi avlodni tarbiyalash malakalarini egallab boradi. Ota-onalarning qolgan bolalarni samarali ijtimoiylashuvini ta'minlash, sifatli va manzilli ijtimoiy himoyalash, xususan, ijtimoiy yetimlikning olidini olish kabi sohalarda olib borilayotgan barcha tadbirlarning haqiqatda ijobiy natija berishi uchun nimalar qilish kerak?

Bugungi kunda jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qiyin hayotiy vaziyatda qolgan oila va bolalarni qo'llab-quvvatlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy xodimlarning faoliyatini faollashtirish, bolalarni institutsional, ya'ni jamoatchilik tarbiya muassasalariga emas, balki, bolaning me'yorda rivojlanishi uchun namuna bo'la oladigan oila tarkibida tarbiyalash resurslarini qidirish jamiyatning kelgusidagi ravnaqini ta'minlash uchun oldindan qo'yilgan ta'mal toshidir. Xususan, ijtimoiy xodimlar – bu qiyin hayotiy vaziyatda qolgan oila va bolalarning tang holatdan chiqib ketishiga salohiyatini yordamni ayamaydigan, demakki, aholining o'z farovonligiga

erishishida har tomonlama yordam ko'rsatilishida ko'maklashuvchi professional mutaxassisidir. AQSH, Angliya, Rossiya va Ukraina kabi davlatlarda mavjud aholini ijtimoiy ish xodimlari kabi mutaxassislarning yordami asosida qo'llab-quvvatlash tajribasi, butun dunyoda deinstitutsionalizatsiya jarayonining keskin tarzda kechishiga asos bo'lmoqda. SHuni ham unutmaslik lozimki, muvaqqat xarakterga ega bo'lgan va izchil ravishda ishlab chiqilgan himoyalash tizimida xizmat ko'rsatish ijtimoiy xodim kabi mutaxassislar hamkorligi va yordamida tashkillashtiriladi.

Quyidagilar Mehribonlik uyining asosiy vazifalari xisoblanadi:


- yetim bolalar va ota-onasining karovisiz kolgan bolalarni (keyingi urinlarda "tarbiyalanuvchilar" deb ataladi) tarbiyalash, kamol toptirish va kullab-quvvatlash;
- tarbiyalanuvchilarni tulik ruxiy soglomlashtirishga, ijtimoiy moslashtirishga va jamiyatga uyg'unlashtirishga kumaklashadigan, ularning sifatli ta'lim va tarbiya olishi, shuningdek ularning ijodiy va intellektual kobiliyatlarini rivojlantirish uchun uy sharoitiga eng kup darajada yakinlashtirilgan muxitni yaratish;
- tarbiyalanuvchilarning konuniy xukuk va manfaatlari ijtimoiy-xukukiy ximoya kilinishini ta'minlash;
- tarbiyalanuvchilarning xayoti va sog'lig'i, psixologik va jismoniy rivojlanishi ximoya qilinishini ta'minlash.

Mehribonlik uylarining asosoy maqsadi: tarbiyalanuvchilarni jamiyatning yetuk a'zolari sifatida ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash, ular tomonidan muayyan kasb yoki xunar sirlarini o'zlashtirilishiga erishish, keskin raqobatlarga bardosh bera oladigan darajada ruhan kamol topishlari uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini belgilashdan iboratdir.

So'nggi yillarda davlatimiz ijtimoiy himoyasi tizimiga joriy etib kelinayotgan ijtimoiy ish xodimlarining aholi o'z hayotidagi ijtimoiy o'zgarishlarda salmoqli hissalari mavjud. Xususan, oila o'rmini bosuvchi tutingan (foster), ya'ni muqobil oilalarni tayyorlash, mazkur oilada tarbiya

topayotgan yetim qolgan bolalar ruhiyatiga xos bo'lgan xususiyatlarning o'zgarishini kuzatish, zaruriyatida tegishli yordamni ko'rsatish; ularning hayot tarzlarini tashkillashtirishga salohiyatli ko'mak berish; tutingan ota-onaga psixologik, ijtimoiy va pedagogik yordam ko'rsatishi funksiyasini bajaruvchi tashkilotlar bilan aloqa bog'lagan holda, chet el tajribasidan va bizning hudud imkoniyatidan kelib chiqib, moslashtirilishi va keng joriy etilishi bizning nazarimizda davlatimiz miqyosida qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalarni ijtimoiy sifat ko'rsatkichi jihatidan oshishiga turki bo'lishi zaruriy holdir.

Ijtimoiy ish xodimi va ular faoliyatining afzalligi borasida fikrlarimizni aniq ifodalash uchun quyidagi sxematik tasvirga e'tiboringizni qaratamiz.



AQSH va Angliyada o'z biologik ota-onasi bilan yashash imkoniyatiga ega bo'limgan bolalarni foster oilalarga berish zanjirsimon kelishuvga binoan tuziladigan shartnoma talabalari asosida amalga oshiriladi: G'arb mamlakatlarida bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimida amalga oshiriladigan barcha tadbirlarning markaziy ishtorokchisi sifatida ijtimoiy xodim amaliy masalalarni hal etuvchi mutaxassis sifatida faoliyat yurgizadi. Qiyin hayotiy vaziyatdagi oila, yetim qolgan bola yoki nogiron bola, voyaga yetmagan

huquqbuzar bolalar toifasi bilan ishlovchi ixtisoslashgan ijtimoiy xodimlar shular jumlasidandir.

Bunday vaziyatlarda foster oila bilan ishslashga ixtisoslashgan ijtimoiy xodim xizmatidan foydalaniladi. Lekin, shu bilan bir qatorda, bolaning biologik oilasi bilan ishlovchi alohida ijtimoiy xodim xizmati ham ko'rsatib boriladi. Yuqoridagi tasvirga e'tibor beradigan bo'lsak, muammo markazida turgan birgina bolaga ijtimoiy xizmatni tashkillashtirishda va uning hayotini yaxshilashda bolaning to biologik ota-onasi bilan reabilitatsion ishlar o'z ijobiy natijasini bermaguncha, ijtimoiy xodimlar har uch tomonlama faollikni hamkorikda amalga oshiradilar. Bolani istalgan yangi muhitga, bu o'rinda yangi va bola uchun butunlay begona bo'lган oilaga joylashtirish bolada o'iga xos jarohatli kechinmalarini uyg'otishi sir emas. SHu bois bu bosqichda bola boshidan o'tkazishi ehtimoli bo'lган kechinmalarni unutmagan holda bola va tutingan oila bilan ish olib borayotgan ijtimoiy xodim har bir holatga individual yondoshishi lozim. Bolani foster oilaga joylashtirish rejali jarayon sifatida tashkillashtirishiga alohida e'tibor berish kerak(tezkorlikni talab etuvchi vaziyatlardan tashqari).

Jarayonning rejali tarzda tashkillashtirilishi evaziga bola va tutingan oila tarbiyachisi hayot tarzida kechishi kutilayotgan o'zgarishlarga tayyorlanishi uchun imkoniyat paydo bo'ladi. Bola ehtiyojlarini qondira olish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bera oladigan mos tutingan oilani belgilash. Bu boradagi qaror bola ehtiyojlari va ma'qul topilgan tutingan oila a'zolari ega bo'lган ko'nikma, qobiliyatlarning mavjudlik imkoniyatiga qarab qabul qilinadi. Tutingan oila bilan ishlovchi ijtimoiy xodim tutingan oila bilan uchrashib, qo'llanilishi kerak bo'lган barcha xatti-harakatlar va bola hayoti tarixini muhokama qilib oladi.

Ijtimoiy xodim bola haqida iloji boricha atroflicha ma'lumotlar to'plashi lozim. Bu ma'lumotlar tutingan ota-onalarda bolani o'z g'amxo'rligi ostiga olishi yoki olmaslik haqida qa'iy qaror qabul qilishga yordam beradi. Bu bosqich shunisi bilan ahamiyatlici, aynan shu davrda tutingan oilaning ushbu

ma'lumotlaridan xabardor etilishi bola va tutingan oila a'zolari o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yoki bolani joylashtirishi bilan bog'liq boshqa muammolarning kelib chiqishini oldini oladi va bola uchun ijobiy oilaviy tajriba olish imkoniyatini oshiradi. Agar opa-uka, ya'ni 2 yoki 3 ta aka-ukalarni bir oilaga (qaridoshlarni bir-biridan ajratmaslik tamoyili asosida) joylashtirish kerak bo'lsa, u holda har bir bolaga xos bo'lgan individual tavsif va atroficha ma'lumot beriladi. SHuningdek, bola kechirgan hissiy jarohatli kechinmalari, jumladan, jinsiy, jismoniy, psixologik zulm jabrdiydasi bo'lgan bolaga xos bo'lgan xususiyatlari hamda psixologik muammolari haqidagi batafil ma'lumotlarning berlishi bola va tutingan oilada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kelishmovchilik yoki munosabatlardagi buzilishlarning oldi olinishiga yordam beradi. Imkon qadar bolani tutingan oila himoyasiga joylashtirishdan oldin ijtimoiy xodim – nomzod tutingan ota-onalarning bola yashayotgan joyiga (instituttsional) muassasa yoki biologik oilasi tashrifini uyushtirishi lozim. Bunday tashrif bola va tutingan oila a'zolari o'rtasida o'zaro iliq munosabatning yuzaga kelishini ta'minlovchi birlamchi va bog'lovchi bosqich sifatida xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, bo'lg'usi tutingan ota-onaga bolaning yashash tarzi haqida aniq tasavvur paydo bo'lishida yordam beradi. Bola haqidagi ma'lumotlar xajmini kengligini inobatga olgan holda bolalar ijtimoiy xodimi bilan birgalikda bo'lg'usi tutigan oilaga tashrif buyurishi va mazkur bolaga tegishli barcha masalalarni muhokama qilab olishi maqsadga muvofiqdir. SHuningdek, tutingan ota-onalarga bolalar ijtimoiy xodimi tomoniadan tayyorlangan hisobotning taqdim etilishi bola va u bilan bog'liq masalalar bo'yicha yuzaga kelgan savollarning atroficha kelishib olinishiga katta yordam beradi. Bolaning bo'lg'usi foster oila bilan atroficha ma'lumotlardan xabardor etilishi ham katta ahamiyatga ega. Chunki bolaning yashash tarzi, oila tarkibi, uy sharoiti, qiziqishlari va bir qaraganda hatto u darajada ahamiyatga ega bo'limgan ma'lumot sifatida befarqlik uyg'otuvchi kundalik turmush tarzi bilan bog'liq mayda ma'lumotlarga ega bo'lishi uning yangi tutingan ota-ona va oiladagi

boshqa a'zolar bilan hissiy bog'lanishining shakllanishi imkoniyatini oshiradi. Agar har ikki tomon, ya'ni bolalar ijtimoiy xodimi va tutingan oila ijtimoiy xodimi ham bola, ham oilaning o'zaro bir-biriga mos kelishi va bolani shu oilaga joylashtirishi har ikki tomomnnig ehtiyojini qondira olishi haqidagi xulosaga kelgan taqdirda tashrif rejasi tuziladi. Bunda bolaning bola hozirda yashayotgan joyga tashrif buyurishi kundaligi, uning qo'shimcha ta'limini kuzatish va shu kabi qator masalalar izchil ravishda rejalashtirib olinadi, shuningdek, tutingan oilaga uyushtiriladigan tashriflar ham inobatga olinadi. Xatto bolani ko'pi bilan ikki kunga bo'lg'usi tutingan oilaga mehmonga yuborishi ham maqsadga muvofiqdir.

Bolalar ijtimoiy xodimi bola bilan uchrashuv natijalari va uning bu oila xaqidagi fikrlarini oydinlashtirib olishi lozim. Agar xaqiqatda hambola uchun ushbu oila yeng maqul oila degan xulasaga kelishi uchun asoslar ko'p bo'lsa u taqdirda bolani joylashtirish kuni belgilanadi. Albatta, bu davr mobaynida ijtimoiy xodim bola uchun barcha kerakli xujatlar jildini taylorlaydi. Tegishli masbul idora va shaxarlar ijtimoiy xodimlar tomonidan taqlid yetila. tgan bolani joylashtirish shakli va oila haqida umumiyl xulosaga kelganlaridan so'ng bolaning yangi oila ko'chib o'tish kuni belgilanadi.

Bolalar ijtimomiy xodimi belgilangan kun va vaqtida bolani unga tegishli buyumlar bilan birgalikda yangi oilaga olib keladi. Bolani ijtimoiy xodimi bilan bola istiqomat qilayotgan tutingan oilaga joylashtirishning dastlabki birinchi haftasida, keyin esa 3 haftadan so'ng, keyinchalik har 6 haftada bir marotaba oilaga tashrif buyurib turadi. Tutingan oila bo'yicha belgilangan ijtimoiy xodim oila va bolaga yordam berish uchun kelishga doim tayyordir.

Bolaning rivojlanishi bilan bog'liq muammo paydo bo'lган taqdirda uni oila a'zolari bilan birgalikda hal qilish, zaruriyat tug'ilganda birgalikda tegishli muassasalarga murojaat qilish, tibbiy yordam ko'rsatilishini tashkil etish (tibbiy muassasalar bilan fuqaro orasida xizmatni tashkillashtiruvchi yordamchi sifatida) ishlari bilan shug'ullanib boradi. Ijtimoiy xodim tutingan ota-

onalarning kuchli va kuchsiz tomonlarini belgilay olishi va tarbiyalanuvchilar bilan shug'ullanish davomida yuzaga kelayotgan masalalarni hal qila olish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Bolani oilaga joylashtirilganidan keyingi nazorat quyidagicha tarzda olib boriladi:

- dastlabki 4 xaftha mobaynida;
- 6 oyda bir marotaba.

Agar bola 2 yoshdan kichik bo'lsa, u taqdirda nazorat davriyligi 3 oydan iborat bo'ladi. CHunki, asosan bolaning 2 yoshgacha bo'lgan davridagi rivojlanishi jadal xarakterga ega bo'lib, u o'z o'rnida ko'proq kuzatuv olib borilishini talab qiladi. Bunday nazoratlarda tutingan ota-onas, bola ijtimoiy xodimi yoki oilaga joylashtirilguniga qadar bola yashagan muassasa ijtimoiy xodimlari, bolaning o'qituvchilari yoki tarbiyachilari va biologik oila a'zolari ishtirok etishlari mumkin. Oila bilan ijtimoiy ish olib borishda ijtimoiy xodim umumiy nuqtai nazardan yondoshishi lozim. Avvalo oilani aniqlash, oilaning asosiy tipi va funktsiyasini, tahlil qilish, zamonaviy jamiyatda oila evolyutsiyasini tushinib yetish zarur bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda mazkur jarayonning xususiyati, oilaning ijtimoiy muammosi, oilaviy siyosati aniqlash, oilani ijtimoiy muammosi, oilaviy siyosatni aniqlash. Oilani ijtimoiy himoyalash, ijtimoiy yordam, oilalarga ijtimoiy xizmat borasida olib borilayotgan ishlar aniq maqsad sari ko'zlangan bo'lib, oilalarning ijtimoiy manfaatlari yuzasidan davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu sohalarni yanada rivojlantirishning istiqbolli rejalarini tuzilgan. Bolani parvarish qilish uchun har bir kursni o'tish jarayonida bolani rivojlanishi haqidagi qonuniyatlarni bilish zarur. Bu bola bilan ishlaydigan har bir ijtimoiy ishchi uchun asosiy talablardan biridir. Davlat va nodavlat tashkilotining mutaxassislarini o'qitish jarayonida mazkur nazariy bilimlardan bola haqida mutaxassislarining xabardor ekanliklarini aniqlangan. SHuning uchun ijtimoiy ish xodimi insonlarga yordam berishda va ularni bilimlarini bolalarning rivojlanishi va ularning ehtiyojlari bilan bog'liqligini baholashni amaliyotda rivojlanitirishga e'tibor qaratiladi. Bolalarning rivojlanishi bo'yicha muhokama

bollarni alohida ehtiyojlari bilan bog'liq muammolarni va rivojlanishdagi og'ishish va uning sababalarini aniqlash imkonini beradi. Bunday muhokamalar bolalarni institutsionalizatsiyasi va yaqin insonlarni yo'qotishi e'tiborsiz, shavqatsiz munosabatga olib kelishi mumkin.

Kelgusida ijtimoiy ishchi bolalar bilan ishlash yoki ishlamasligidan qat'i nazar bolaning kelgusidagi rivojlanishi haqidagi bilimlardan xabardor bo'lishi zarur. Ushbu paragrafga xulosa qilib aytganda, ijtimoiy ish xodimi oila va bolalar bilan, ayniqsa ota-onas qaramog'isiz qolgan bolalar bilan ishlashda o'zarining majburiyatlarini sitqidildan bajarilishlari muhim shart qilib qo'yiladi. Ushbu yuqorida ta'kidlangan ishlarni bajarish uchun bugungi kunda respublikamizda sharoit yaratilgan bo'lib, xalqimiz mentalileti yoki urf-odatlari, qadriyatlar asosida yondoshishlikni taqazo etadi. Zero, erkin, demokratik huquqiy davlat qurilishida bu tarbiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 17 oktyabrdagi 230-sonli "Mehribonlik uylari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori asosida ushbu ta'lim-tarbiya muassasalarida ilk bora ijtimoiy xodim vazifasi joriy etildi. Mazkur me'yoriy-huquqiy xujjat muassasa xodimlaridan tarbiyalanuvchilar bilan ishlashda hamkorlik tamoyili asosida yondoshishni talab qiladi. Zero, bu yondoshuv har bir tarbiyaviy jarayonning asosiy bo'g'ini bo'lib qolmog'i lozim. Ijtimoiy pedagogik-psixologik xizmat tarkibidagi muassasa psixologi, shifokor, defektolog, katta yetakchi kutubxonachilarning o'zaro faoliyati ham har bir tarbiyalanuvchining har tomonlama ijtimoiy himoyalanishga qaratiladi.

## **2.3. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'urur hissini shakllantirish masalalari.**

**Marg'ilon shaxar 1-sonli “Mehribonlik uyi”.**



**2.2. Mehribonlik uylari o'quvchilarini milliy, ma'naviy-axloqiy ruhida tarbiyalashda ijtimoiy ish xodimining vazifalari.**

Ijtimoiy ish xodimlari Milliy Assotsiatsiyasi ijtimoiy ish xodimi kasbini “insonlar, guruxlar yoki hamjamiyatlarga ijtimoiy faoliyatlar uchun imkoniyatlarni oshirish yoki tiklash masalasida va ushbu maqsadlarni bajarishda imkon beruvchi ijtimoiy sharoitlarni yaratishda ularga yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy faoliyat” deb ta'riflaganlar.<sup>15</sup>

Milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning mohiyatini anglash uchun dastlab "milliy qadriyatlar" tushunchasi bilan tanishish maqsadga muvofhidir. "Milliy qadriyatlar - millat uchun muhim va jiddiy axamiyatga ega jsh;atlar,

<sup>15</sup> L.Kim.D.Isaeva. S.Tadjieva.D.Sobirova."Bolalar va oilalar bilan ijtimoiy ish amaliyoti". kursi bo'yicha xrestomatiya.T.- JAHON PRINT nashriyoti.2012-yil.B.6

xususiyatlar, moddiy va ma'naviy boylikdir"<sup>1</sup>. Darhaqiqat, milliy qadriyatlar u yoki bu millatning utmishi, buguni, ertasi, ijtimoiy tarakdiyoti, millatga mansub kishilarning turmush tarzi, ular o'rtaida tashkil etilayotgan o'zaro munosabatlar uchun daxldor bo'lган, qadr-himmatga ega, qadrli moddiy va ma'naviy omillar sanaladi. Millat aynan o'ziga xos bo'lган milliy qadriyatlar tufayligina o'zga millat va elatlardan farklanadi.

Milliy qadriyatlarning tanazzuli - millatning millat sifatida yo'kolib borishini, mavjud bo'lmasligini ta'minlaydi. Milliy tarixiy turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlar, qatlamlar, milliy ong, milliy til, milliy valyuta, milliy xudud yaxlitligini ifodalovchi davlat ramzlari, millat vakillari, millatning ravnaqi, ertangi kuni milliy qadriyatlar asosini tashkil qiladi.

"Qadriyat" juda keng tushuncha bo'lib, unda millatning o'ziga xos tomonlari, fe'l-atvori, donishmandligi, milliy g'ururi o'z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, millatning madaniyati, imoni, milliy urf-odati, mexru oqibatiyu turmush tarzi, ko'shiq va raqslari, milliy libosi, milliy tarbiyaning barcha qirralari xalqning o'ziga xos qadriyatlarda namoyon bo'ladi. Kadriyatlar o'z moxiyatiga va amal qilish doirasiga qarab bir necha guruxga bo'linadi:

- 1.Tabiat bilan bog'liq qadriyatlar, ya'ni insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lган tabiiy boyliklar, o'simliklar, xayvonot olamini asrash, ko'paytirish, tejamli foydalanishini targ'ib etuvchi g'oyalar, qarashlar;
- 2.Iqtisodiyot soxasidagi mexnat va mexnat kurollari malakasi bilan bog'liq qadriyatlar, shuningdeq sharqona munosabatlar;
3. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga davlat to'zilmasi, uning xukuqiy asoslari - adolat, tengliq tinchliq haqiqat singari omillar, davlat ramzlariga bo'lган xurmat;
- 4.Ma'naviy qadriyatlar - millatimiz tomonidan yaratilgan va bizgacha kelgan ilmiy-falsafiy, axloqiy qarashlar, diniy, tarixiy, badiiy, san'at bilan bog'liq yodgorliklar kiradi.

Demak, milliy qadriyat muayyan millatning avloddan-avlodga o'tib, o'zoq vaqt saqlanib kelgan axloqiy normalari, g'oya va diniy e'tiqodi, urf-odat va

marosimlarini o'z ichiga oladi.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonida ularni milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan tanishtirib borish muxim ahamiyatga ega. Tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xayotda erkin, mo'tadil kun kechirishlari uchun o'z faoliyatlarini milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tashkil etishlari lozim. Milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar garchi, yozma manbalarda ifodalanmagan bo'lsada, jamiyat tomonidan tan olinib, og'zaki shaklda ma'naviy-axloqiy munosabatlarni tartibga soladigan me'yorlarni ifodalaydi.

Tadqiqot davrida tarbiyalanuvchilarning kelgusi xayotlari kungildagidek kechishini ta'minlash, ularning ma'naviy, ruhiy va jismoniy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda ustuvor ahamiyatga ega, qadriyatli xulq-atvor qoidalari, talablarining anikdanishiga e'tibor qaratildi. Bizning nazarimizda, bu jarayonda kuyidagilar o'ziga xos <sup>t</sup> urin tutadi:

- 1) Atrofdagilar bilan o'zaro muloqot va oldi-berdi munosabatlari- ni tashkil etish shartlaridan xabardor bo'lism.
- 2) Jamoa joylari xamda ta'lim muassasalarida umumiyl axloq me'yorlariga rioya qilish.
- 3) Jamiyat (davlat) da amal qilinadigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan xukukiy-axloqiy talablarga og'ishmay amal kilish.
- 4) Tabiatga (moddiy borliqqa) oqilona munosabatda bo'lism.

Bu o'rinda dastlab tarbiyalanuvchilar kishilarning o'zaro salomlashishlari, uning ijtimoiy mohiyati to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor bo'ladilar.

Hadislarda "Salom" Allohning ismlaridan biri ekanligi, shu bois, mo'minlar bir-birlarini ko'rganlarida bu so'zni aytishlari ular o'rtasidagi oqibatni mustahkamlashi alohida qayd qilinadi. Ya'ni "Salom" - Allohning yerdagi ismlaridan biridir. Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar. Zero, mo'min kishi odamlar oldidan o'tib borayotib ularga salom bersa, ular ham alik olishsa, ularga salomni eslatgani uchun bir daraja ko'p savobga erishadi.

Mabodo, alik olishmasa, unga baribir, ulardan yaxshiroq va afzalroq zotdir, ya'ni farishtalar alik olishadi". Tajriba-sinov ishlarini olib borish chog'ida tarbiyalanuvchilar qaysi sharoit va vaziyatlarda salom qay tarzda berilishi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ham tanishtirib o'tildilar. Bu o'rinda Muhammad Sodiq Kashg'ariyning "Odob as-solixin" asarida keltirilgan kuyidagi ma'lumotlardan foydalanildi: "ulug' kichikka, otliq piyodaga, yuruvchi o'tiruvchiga, oz ko'pga salom bergay". Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda ularning ma'naviy-axloqiy xislatlarga ega bo'lishlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Zero, tarbiyalanuvchilar ham teng xuquqli a'zo sifatida jamiyat tomonidan tan olingan axloq mezonlariga rioya etishlari lozim. Xo'sh, axloq mezonlari o'zi nima? Bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda Mehribonlik uylarining tarbiyalarida qanday ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirish taqozo etiladi? Ana shu maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat moxiyatida nimalar aks etishi kerak? Kuyida shu kabi savollar yuzasidan so'z yuritiladi. Insoniyatning fikrlay boshlashi, yaxshi-yomonni ajrata olishi muayyan jamiyatda kishi munosabatlarini tartibga soladigan axloq mezonlari, qoidalarning ishlab chiqilishiga zamin yaratdi. "Axloq (lotin. "moralis" - qoidaga, xulq-atvorga, urf-odatga taallukli, axloqli)kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos usuli, u yoki bu jamiyatda kabul qilingan va rioya qilinishi lozim bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat xamda muloqotning qonun-qoidalari, mezonlar"; "ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-xarakat qoidalari yig'indisidir".

Manbalarda, shuningdeq axloq yig'indisi xar bir inson tan oladigan etik qadriyat; inson mavjudligining o'z-o'zini tarbiyalash, tartibga solish va boshqarishning o'ziga xos usuli sifatida xam ta'riflanadi. "Axloq kishilar xulq-atvorlari, muloqotlari, munosabatlarining yozilmagan, lekin jamiyat tomonidan qabul qilingan hamda qo'llab- quvvatlanadigan "oltin qoidalari"<sup>4</sup>ni ifodalab, odamlarning bir-birlariga, jamiyatga, davlatga, xalq

mulkiga, oilaga, ishlab chiqarish vositalariga, mexnat maxsulotlari va shu kabilarga munosabatni muayyan tartibga soladigan xatti-xarakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi". Shaxslararo munosabatlarda axloq xususiyatlari qay tarzda va qanday shakllarda namoyon bo'ladi? Mazkur masala yuzasidan ma'lumot beruvchi manbalarda bildirilgan fikrlarni kuyidagi tarzda umumlashtirish mumkin:

1. Axloq ijtimoiy shaxslararo munosabatlarni tartibga soladi;
2. Shaxslararo munosabatlar mazmunini belgilashga xizmat qiladi;
3. Ma'naviy-axloqiy me'yor (mezon)lar xuddi qonun, xukuqiy me'yorlar kabi yozma ravishda tartibga solinmaydi;
4. Axloq jamoatchilik fikri bilan boshqariladi;
5. Shaxsning ma'naviy-axloqiy mezonlarga rioya qilishi uning milliy-ma'naviy qadriyatlarga munosabatini, jamiyatdagi o'rni va rolini, shuningdeq dunyoqarashini belgilaydi;
6. Axloq shaxsga xos xislatlarning muhim tomonini ifodalaydi;
7. Shaxsning umumjamiyat tomonidan tan olingan qadriyatlarni, ya'ni boshqalar sub'ektlarning haq-xuqukdirini tan olish, ular bilan kelishish, jamoada o'zini tuta bilish kabilarni o'zida aks ettiradi.

Jamiyatda xar bir shaxsning axloqda bo'lgan munosabati ularning axloqiy ongga egaliklari bilan belgilanadi. Axloqiy ong, o'z navbatida, axloqiy xatti-harakatlar va munosabatlarning ifodasi : hisoblanadi. Axloqiy his-tuyg'u, iroda, akl-zakovat, intuitsiya, xayol va xotira kabilar axloqiy ong tarkibini tashkil qiladi.

**Quyidagilar mehribonlik uylari o'quvchilarini milliy, ma'naviy – axloqiy ruhida tarbiyalashda ijtimoiy ish hodimining vazifalari hisoblanadi.**

- yetim bolalar va ota-onasining karovisiz kolgan bolalarni tarbiyalash, kamol toptirish va kullab-quvvatlash;
- tarbiyalanuvchilarni tulik ruxiy soglomlashtirishga, ijtimoiy moslashtirishga va jamiyatga uyg'unlashtirishga kumaklashadigan, ularning sifatli ta'lim va tarbiya olishi, shuningdek ularning ijodiylari va intellektual kobiliyatlarini

rivojlantirish uchun uy sharoitiga eng kup darajada yakinlashtirilgan muxitni yaratish;

- tarbiyalanuvchilarning konuniy xukuk va manfaatlari ijtimoiy-xukukiy ximoya kilinishini ta'minlash;
- tarbiyalanuvchilarning xayoti va sog'lig'i, psixologik va jismoniy rivojlanishi ximoya kilinishini ta'minlash.
- tarbiyalanuvchilarni jamiyatning yetuk a'zolari sifatida ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash, ular tomonidan muayyan kasb yoki xunar sirlarini o'zlashtirilishiga erishish, keskin raqobatlarga bardosh bera oladigan darajada ruhan kamol topishlari uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini belgilashdan iboratdir.

Mehribonlik uylarida ijtimoiy tarbiyaning tashkil etishda yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri bu tarbiyalanuvchilarning etnik-milliy kelib chiqishi nuktai nazaridan ularni milliy qadriyatlar ruxida tarbiyalash sanaladi. Respublikada faoliyat yuritayotgan deyarli barcha Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari turli millat va elatlarga mansubdirlar. Tarbiyalanuvchilarning baynalmilallik ruxida tarbiyalanishlari, ularda tolerantlik hissining shakllanishi ijobiy xolat, albatta. Birok, psixologik nuktai nazaridan shaxe o'zida milliy ruxiyat, milliy mentalitet xususiyatlarini ifodalay olishi xam zarur, SHu sababli mazkur ta'lim muassasalarida ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mazkur masalaning ijobiy yechimini topish chora-tadbirlarini belgilash maqsadga muvofiqdir.

"Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy-axloqiy qoidalar bilan tanishtirib borish ularning axlodiy jidatdan to'g'ri tarbiyalanishlariga zamin yaratadi. Zero, tarbiyalanuvchilar tomonidan ijtimoiy-axloqiy qoidalarning yetarli darajada anglanishi ularga zid xatti-xarakatlar sodir etilishining oldini oladi. SHu sababli muassasada tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida masalaning mazkur jixatiga jiddiy e'tibor qaratilishi lozim. Tadqiqotni olib borish chog'ida ana shu maksadga yunaltirilgan pedagogik faoliyatda nimalarni inobatga olish zarurligi urganildi. Manbalar bilan tanishish, shuningdek,

jamiyatda qaror topgan shaxslararo ijtimoiy munosabat- lar mazmunini tahlil kilish asosida tarbiyalanuvchilarning quyidagi yunalishlardagi ijtimoiy-axloqiy qoidalardan xabardor bo'lishlari kelgusida ularning xar tomonlama yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishlarida muxim ekanligi anikdandi:

1. Shaxslararo munosabat va muloqotni to'g'ri tashkil etish.
2. Mehnat va kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish.
3. Ta'lif muassasasi xayoti (faoliyati) ni yulga ko'yishda ishtirok etish.
4. Maishiy turmushni yulga qo'yish.
5. Jamiyat ijtimoiy xayotida faol ishtirok etish.

Tajriba-sinov ishlari davrida tarbiyalanuvchilar uchun kun tartibi-ni tuzishda turli yoshdagi tarbiyalanuvchilarning kundalik faoliyatlar, ularning qiziqish, xoxish - istaklari xam inobatga olindi. SHu bilan birga turli yosh davri uquvchilari uchun ishlab chiqilgan kun tartibida ayrim talablarning bir xil bo'lishiga e'tibor qaratildi. Jumladan:

- doimo bir vaqtida uyqudan turish;
  - ertalabki chinikish va suv muolajasini o'tkazish;
  - kuniga uch-turt (etti) maxal belgilangan vaktgda ovqatlanish;
  - bir kunda kamida ikki soat toza xavoda bo'lish;
  - doimo bir vaktda dars tayyorlash;
  - xar xhaftada (kamida ikki marta) ikki soatdan jismoniy mashklar yoki (kulay jismoniy yuklanma) sport bilan shug'ullanish;
- bir kunda kamida sakkiz soat uqlash;
- xar kuni bir vaqtida uyquga ketish.

Mehribonlik uylarining xar birida ularning butun faoliyati davomida amalda bo'lib kelayotgan kun tartiblari mavjud. Birov, tadqikotni olib borish jarayonida Mehribonlik uylari uchun kuyidagi kun tartibi tavsiya qilindi.

Zamonaviy jamiyatda yetim bolalar va bolalarni ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishga tayyorlash, ularning ijtimoiy moslashuvlarini ta'minlash dolzARB ijtimoiy - pedagogik muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Mustakil dayotga kadam ko'yishning dastlabki boskichida xar qanday o'spirin ijtimoiy yordamga

edtiyoj sezadi. Bu edtiyoj odatda oila muxitida qondiriladi. Birok, ota-onasiz yoki ularning qarovidan maxrum bo'lgan bolalar va o'smirlarni mustaqil xayotga tulaqonli shaxs sifatida tayyorlash davlat va jamiyat tomonidan katta kuch sarflanishini talab qiladi.

Bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiylashtirish tarbiya va ta'limga ishlari o'zaro muvofiklikda olib borilgandagina ta'minlanadi.

Bolalar uylarining asosiy vazifasi tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirish sanaladi. Buning uchun oila munosabatlarini o'zida ifoda etuvchi tadbirlarni tashkil etish maqsadga muvofikdir. Bunday tadbirlar jarayonida ular kattalar ning kichiklar to'g'risida g'amxurlik qilishlari; kattalarga xurmat bilan munosabatda bo'lish; ota-onani xurmat kilish; ota-onalar, oilaning katta a'zolari bilan samimiy munosabatda bo'lish; bir-birlarini tushunish xamda uy-kechinmalarini xurmat qilish kabi fazilatlarni o'zdashtira olishlari lozim.

Mehribonlik uylarida ta'limga va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning milliy kadriyatlar xamda tamoyillarga asoslanishiga erishishda quyidagi vazifalarning ijobjiy xal etilishi muxim axamiyatga ega:

Milliy tarbiyani yo'lga quyishning differentsiyal (tabakaviy) pedagogik-psixologik dasturini yaratish;

tarbiyalanuvchilar ongiga milliy istiklol g'oyasini singdirish ishlarini uzlusiz ravishda, ya'ni dareda, daredan tashdari sharoitda izchil yulga kuyish;

o'quv dasturlari, darslik, tavsiyanoma va kullanmalarda milliy mafkura, milliy istiqlol g'oyasi va milliy tarbiya masalalarini yetarlicha aks ettirish;

milliy tarbiyani bugungi kun talablari darajasida amalga oshirish uchun tarbiyaviy soatlar majmuasini ishlab chikish;

pedagogik kadrlarning ma'naviyatini yuksaltirish borasida ta'limga xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish fakul'tetlari, intitutlarida milliy tarbiya muammolari bo'yicha

Maxsus muassasalarda tarbiyalanyotgan bolalar va o'smirlar shaxsini o'rganish natijasida ularni ikki guruxga ajratish mumkin. Ya'ni:

- 1) ota-onasi yoki ulardan biri vafot etganligi, oila boquvchisidan ajralganligi, baxtsiz xodisalar ruy bergenligi uchun yetim bo'lib qolgan bolalar va o'smirlar;
- 2) ota-onasi bor bo'lsada, biroq, ularning ota-onalik xududidan maxrum etilganliklari, nosog'lom turmush tarzini o'zlashtirganliklari, farzandlarining xayoti va taqdiriga befarq munosabatda bo'lishlari natijasida "qarovsiz" deb topilgan bolalar va o'smirlar.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining shaxsini to'la o'rganilgandan so'ng ularga ko'rsatiladigan psixologik yordam turi dam aniqlab olinishi lozim. Shundan so'ng bajarilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalardan biri - bu Mehribonlik uylari psixologining yillik ish rejasini ishlab chidish sanaladi. Psixologning yillik ish rejasi mustaqil ravishda tuzilib, hududiy tashxis Map kazi bilan kelishilgan holda muassasa direktori tomonidan tasdiqlanadi. Mehribonlik uyining psixologi yillik ish rejasini tuzishda asosan quyidagi yo'naliishlarni asos qilib oladi:

1. Psixologik ma'rifat va tashviqot ishlari.
  2. Psixologik profilaktika.
  3. Psixologik diagnostika.
  4. Psixologik korrektcion rivojlantirish ishlari.
  5. Psixologik maslaxat.
  6. Kasb-xunarga yo'naltirish va oilaviy hayotga tayyorlash.
- E.M.Borisov tomonidan qayd etilgan quyidagi tipik holatlar ham Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini kasbga yo'naltirishda psixolog maslahatiga tayanib ish ko'rish zaruriyatini ifodalaydi:
1. Aniq bir kasbgagina emas, balki biror faoliyat turiga yaqqol qiziqish va mayilning yo'qligi.
  2. Gumanitar va texnik soha bo'yicha kasb tanlash doirasini cheklash ehtiyojining yuzaga kelishi.

3. Muayyan kasb tanlangan, biroq, qobiliyati, o'quvi va bilimi yetarli bo'limganligi sababli yetuk mutaxassis bo'lish ishonchiga ega emaslik.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarni kasbiy faoliyatga yo'naltirishga qaratilgan amaliy ishlar kuyidagi ikki yo'nalishda olib boriladi:

1. Axborot-ma'rifiy ishlar.
2. Uquvchilar bilan yakka tartibda ishslash, tashxis kilish, tuzatishlar kiritish va ko'mak berish maksadida maslahatlar uyshtirish.

Mehribonlik uylarida amaliy psixolog kuyidagi vazifalarni bajara olishi lozim:

- bo'şqa mutaxassis (tarbiyani, pedagog, defektolog, raxbar va xokazolar) larning bilimlarini, salohiyatini, qobiliyatini hurmat qilgan holda xamkorlikda ish olib borish;
- zamonaviy psixodiagnostika uslublaridan foydalanish qoidalari bilan doimo tanishishlari va muntazam malakalarini oshirishga e'tibor qaratish; -ish jarayonida e'tiborlilik, tashkilotchilik, javobgarlik hissi, analitik aql, emotSIONAL barqarorlik, obrazli eslash qobiliyati, yaxshi nutq, mantiqiy tafakkur, eruditsiya (keng ma'lumotga ega bo'lish), chidamlilik kabi kasbiy sifatlarga ega bo'lish;
- kasbdagi umumiy axloqiy me'yorlar, ya'ni shaxsga hurmat bilan qarash, inson huquqlarini himoya qilish, tarbiyalanuvchilarga nisbatan samimiy bo'lish, psixologik uslublarni qullashda va suhbat jarayonida extiyotkor, faoliyat jarayonida esa qat'iyatli bo'lish va maksadga erishish kabi tamoyillarga asoslaiib ish ko'rish.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining aksariyatida aggressivlik kayfiyati kuzatiladi. SHu sababli tajriba-sinov ishlarini olib borishda amaliyotchi-tarbiyachilarga hulq- atvorida aggressivlikning namoyon bo'lishi haqida ma'lumotlar berib o'tildi. Ular kuyidagilardan iborat:

1. Ba'zan uning ichiga shayton kirib olgandek tuyuladi.

2. Nimadandir norozi bo'lganda jim o'tirib oladi.
  3. Kimdir unta yomonlik qilgan bo'lsa, albatta, u ham shu yul bilan alamini "olishga" harakat diladi.
  4. Ba'zan hech bir sababsiz kim bilandir urishib olgisi keladi.
  5. Mamnuniyat bilan uyinchodlarini buzishi, "ichak-chavodlari"ni kovlashi yoki nimanidir sindirishi mumkin.
  6. Ba'zan nimanidir qattiq talab qilib turib olganidan atrofdagilarning sabr-toqati tugaydi.
  7. Kayvonlarning "jig'i"ga tegishdan bosh tortmaydi.
  8. Fikridan qaytarish juda ham qiyin.
  9. Agar da kimdir uning ustidan mazax qilayotganidek tuyulsa, juda qattiq jahli chiqadi.
  10. Ba'zan unda atrofdagilarni hayron qoldiradigan darajada qandaydir yomonlik qilish istagi paydo bo'ladi.
  11. Odatdagি talablarga javoban hammasini teskari qilishga harakat qiladi.
  12. Ba'zan yoshiga mos kelmagan darajada "vaysaqi" bo'ladi.
  13. O'zini mustaqil va qat'iy deb hisoblaydi.
  14. Har narsada birinchi bo'lishni, buyruq berishni, boshqalarni o'ziga bo'ysundirishni yaxshi ko'radi.
  15. Omadsizliklar kuchli asabiyashuvini, aybdorlarni topish istagini uygotadi.
  16. Osongina janjallahib, mushtlashib ketishi mumkin.
  17. Uzidan kichiklar va jismonan kuchsizroq bolalar bilan muomalaga kirishga intiladi.
  18. Ko'pincha arazlab qolishi ham mumkin.
  19. Tengdoshlari bilan hisoblashmaydi, bo'ysunmaydi, uz fikri bilan bo'lishmaydi.
- 20 Istalgan topshiridni hammadan yaxshirod bajara olishiga qattid ishonadi

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyor- lashda ro'zg'or uchun zarur, muhim buyumlarni xarid qilish, ulardan foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish ham muhim sanaladi. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish chog'ida ushbu yo'nalishda alohida ijtimoiy-pedagogik faoliyat yo'lga qo'yildi. Mazkur faoliyat negizida tarbiyalanuvchilarga: 1) uy (mehmonxona va yotokhona) jihozlari; 2) osh-xona buyumlari; 3) elektrotexnika jihozlari; 4) kurilish, ta'mirlash hamda dehqonchilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar bilan tanishtirildilar.

Dastlabki tajriba natijalarining ko'rsatishicha, tarbiyalanuvchilarning aksariyati uy (mehmonxona, yotoqhona) jihozlari hamda oshxona buyumlaridan deyarli; ayrim elektrotexnika jihozlaridan qisman xabardorliklari aniklangan bo'lsa, ularning qurilish, ta'mirlash va dehqonchilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar, ularning nima maqsadda kullanilishi va ulardan to'g'ri foydalanish to'g'risidagi nazariy bilimlari yetarli emasligi aniqlandi. SHu bilan birga tarbiyalanuvchilarning uy (mehmonxona, yotokrhona) jihozlari, oshxona buyumlari, elektrotexnika jihozlari hamda qurilish, ta'mirlash va dexqonchilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar, ulardan kanday maqsadlarga xizmat qilishini bilganliklari holda foydalanish shartlarini deyarli o'zlashtirmaganliklari ma'lum bo'ldi.

Tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishi tarbiyalanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashdan iborat bo'lishiga katta e'tibor berish talab qilinadi.

Zamonaviy tibbiy va psixologik adabiyotlarda yopiq tipdagi ta'lim muassasalari (Mehribonlik uylari, maxsus maktablar) da tarbiyachilar bilan tarbiyalanuvchilar o'rta sidagi munosabatlarda oilaviy munosabatlar imkon qadar aks etmasligi zarur ekanligi ta'kidlanmoqda. Oilaviy g'amxurlikdan mahrum bo'lgan bolalar bilan ishslashning zamonaviy ijtimoiy texnologiyasi nuqtai nazardan "Bolalar uylarining ijtimoiy pedagoglari faoliyati tarbiyalanuvchilarda ular bilan aloqada bo'lib turgan (vaqt-i-vaqt bilan yozishmalar yuborayotgan, kamdan-kam holatlarda uchrashuvlarga kelayotgan) shaxslar - yaqin kishilari (hatto, ota-onalari bu hukuqdan mahrum etilgan,

mahsus muassasalarda jazo muddatini o'tayotgan, tibbiyot muassasalarida davolanayotgan bo'lsalar ham) va qarindoshlariga nisbatan munosabatni optimallashtirish maqsadga muvofiqdir. Zero, bunday maktablar va ayniqsa, uchrashuvlar bolalarda ruhiy bezovtalikni keltirib chiqaradi, ular ko'nglini jarohatlaydi. Biroq shuni ham ta'kidlash lozimki, garchi, shunday bo'lsada, tarbiyalanuvchilar doimo ota-onalari va qarindoshlari bilan munosabatda bo'lishga intiladilar.

Mehribonlik uylarida amaliy pedagogika va psixologiyaning ustuvor tamoyillari o'ziga xos dolzarblik kasb etadi. Bu birinchi navbatda, tarbiyalanuvchilarni ular uchun qiziqarli bo'lgan doimiy faoliyat - boshlang'ich kasbiy, texniq badiiy, musiqiy, sport xamda ijtimoiy- foydali mexnatga jalb etish lozimligi bilan tavsiflanadi.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining faoliyatini kuzatish, ijtimoiy maqomi, ruxiy xususiyatlarini o'rganish, shuningdeq kundalik faoliyatlarini kuzatish natijasida kuyidagi shakl, metod va vositalar ular o'rtasida oila va oilaviy xayot to'g'risidagi nazariy xamda amaliy bilimlarni samarali targ'ib etishga yordam bera olishi aniklandi:

### 1. Pedagogik faoliyat shakllari:

- suhbat;
- uchrashuv
- savol-javob;
- mini ma'ruza;
- bellashuv
- bahs-munozara;
- debat;
- trening.

### 2. Pedagogik faoliyat metodlari:

- og'zaki bayon qilish, tushuntirish;
- namuna kursatish;
- ko'rsatmali namoyish etish;
- amaliy mashg'ulotlar.

### 3. Pedagogik faoliyat vositalari:

- nutq;
- namuna;
- o'zaro muloqot;
- oila va oilaviy hayot to'g'risidagi ma'lumotlar;
- maxsus va badiiy adabiyotlar, uquv manbalari;
- ommaviy axborot vositalari xizmati;
- texnik vositalar.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy xayotga tayyorlashda ularga sog'lom turmush tarzi va uning muayyan qoidalariga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish xam o'ziga xos dolzarb xususiyat kasb etadi. Ana shu maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyatni tashkil etishga maqsadli yondashish lozim". Bu borada tarbiyalanuvchilarda kuyidagi ko'nikmalarni hosil qilish e'tiborga olindi: sog'lom turmush madaniyati asoslari to'g'risidagi ma'lumotlarni izlash va topish (o'quvchi-murabbiylar tomonidan taqdim kilingan materiallarni o'zlashtirish, lug'atlar va kitoblardan tegishli ma'lumotlarni olish, imkon doirasida barcha vositalardan axborot olish);

4. pedagoglar ko'zatuvida sog'lom turmush madaniyatiga tegishli har qanday voqealik va jarayonlarni ko'zatish, qayd etish, o'qish, yozib olish va o'zlashtirish; /

5. sog'lom turmush madaniyati asoslari haqida ma'lumotlarni bevosita qabul qilish, tanlash, tahlil kilish va baholash, ularni saralay olish;

6. o'z faoliyatini o'zi ko'zatib borishga o'rganish, ta'lim me'yorlari va talablarini o'z vaqtida bajarishga ko'nikish;

7. sog'lom turmush madaniyati asoslarini o'zida mujassam etgan barcha fanlardagi (biologiya, fiziologiya, pedagogika, psixologiya kabi) ma'lumotlarni uyg'un o'zlashtirish;

8. shaxsiy gigiena vositalaridan foydalanishni o'rganish;

9. sog'lom turmush madaniyati muammolarini muhokama qilishda faol ishtirok etish.

Shunday qilib, tadqiqot jarayonida ma’naviy-ma’rifiy ishlar ti-zimini ishlab chiqish tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash imkonini berdi. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar sirasida treninglar, baxs-munozaralar, kichik tadqiqotlar, shuningdeq bellashuvlarning o’rin olganligi tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorlikni ifodalaydigan amaliy ko’nikma va malakalarga ega bo’lishlarini ta’minladi.

### **Xulosa.**

Bitiruv malakaviy ishimizni bajarishda, mavzuning mazmuniga oid manbalarni o’rganish, tahlil qilish, kuzatish va tajriba-sinov ishlarini olib borish asosida quyidagi xulosalar chiqariladi: Mavzuga oid pedagogik, psixologik va ilmiy-metodik adabiyotlarni, me’yoriy xujjatlarni o’rganib, tahlil qilinadi va umumlashtirildi, olimlar va mutaxassilar tadqiq etadigan muammolar mavjud ekanligi ma’lum bo’ldi.

Muammoning nazariy hamda amaliy asoslarini tadqiq qilish asosida uning dolzarb pedagogik muammo ekanligi aniqlandi.

Ijtimoiy soha mutaxassislari tomonidan tashkil etiladigan tadqiqotlarining samaradorligi darajasi belgilandti. Mehribonlik uyi sharoitida bolalar bilan ijtimoiy ish olib borishning tartibi ishlab chiqildi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining o’zlashtirishi va bilimlarini oshirishda qo’llaniladigan metodlar, pedagogika fanlarining qonun-qoidalari, qonuniyatlariga tayanib tashkil etilsa tarbiyalanuvchilarining umumiyligi va jismoniy kamolotlari yanada mukammallashadi. Bugungi kunda Mehribonlik uylarida zamonaviy kompyuter sinflari, sport inshoatlari barpo etildi va yoshlarimizning eng yuqori saviyada shug’ullanishlariga sharoit yaratildi. O’quv mashg’ulotlari mashg’ulotlari yoshlarimizga milliy va umuminsoniy tarbiya berishning zarur shartlaridan biri bo’lib qoldi.

Bolalarga milliy o’zligimizni anglatuvchi fanlardan olib boriladigan mashg’ulotlar nafaqat ta’lim-tarbiya maskanlarida, balki muntazam tashkil etib borilishi mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini kamolotini jadallashtiradigan va to’la-to’kis bo’lishini ta’minlaydigan umuminsoniy tarbiyaning ajralmas qismi

ekanligi aniqlandi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining o'zlashtirishi va bilimlarini oshirishda jismoniy tarbiya mashqlaridan foydalanishga albatta ta'llim-tarbiyaviy mohiyatiga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlashni lozim topdik.

Mehribonlik uylarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari ilmiy asosda tashkil etilganda tarbiyalanuvchilarning aqliy, axloqiy, mehnat, nafosat va boshqa tarbiya yo'naliшlariga kuchli ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi. Ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoshlarning jismoniy kamolotlarini takomillashtiradi. Bu o'z navbatida tarbiyalanuvchi-larni har taraflama ulg'aygan, komil insonlar bo'lib yotishlari uchun zamin xozirlaydi.

Darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan shug'ullanish tarbiyalanuvchilarning extiyoji, qiziqishlari, sportning ma'lum bir turini mukammal egallash maqsadida amalga oshiriladi. Bunday mashg'ulotlar maqsadli yo'naltirilgan bo'lib, ayrim jismoniy sifatlarning kuchli shakllanishiga olib keladi. Muntazam shug'ullanish boshlangandan keyin uch-to'rt oy muddat orasida qo'lga kiritilgan natijalar bir, bi yarim barobarga o'sadi. CHaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik, kuchlilik kabi jismoniy sifatlar ayrim sport o'yinlari yuzasidan umumiyligi va professionallik tayyorgarligini jadallashtiradi.

Mashg'ulotlarga malakali ustoz-murabbiylar rahbarlik qilsalarda o'z-o'zini nazorat qilish xech qachon e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim.

Ushbu izlanishlarimizning natijalarini umumlashtirish yakunida olingen xulosalar kelgusi-dagi faoliyatimizda, xususan, jismoniy tarbiya o'qi-tuvchisi sifatidagi faoliyatimizda shubhasiz foya berishga ishonch hosil qildik.

Mehribonlik uylari faoliyat yuritadigan har bir pedagog, ishchi-xizmatchi, xodimlar o'zlarini tarbiyachilar deb his etishlari, bolalar bilan bo'ladigan munosabatlarida samimiylikka e'tibor qaratishini alohida ta'kidlashni ma'qul deb bildik.

Mehribonlik uyida ishlaydigan har bir xodim tarbiyalanuvchilarga chin

ma'nodagi mehribonlik namunalarini ko'rsatib borishi katta foyda keltirishini Marg'ilon shaxar 1- sonli "Mehribonlik uyi"da olib borilgan tadqiqotlar davomida yaxshi yo'lga qo'yilganini, tarbiyalanuvchilarga qulay sharoitlar yaratib berilganligini guvohi bo'ldik.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida bolalar, shu jumladan, yetim va ijtimoiy yetimlar manfaatlarining ximoyalanayotganligi, maxsus muassasalar yoki o'zga oilalarga jalb qilinayotganlarida ularga jamiyatning to'laqonli a'zosi hamda fuqaro sifatida munosabatda bo'linayotganligi ham 1959 yilda Birlashgan Millatlar tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya talablariga mos keladi. Mazkur xujjatning barcha tamoyillari O'zbekiston Respublikasining voyaga yetmaganlarning manfaatlarini muhofaza qilishga oid qonunchilik xujjatlarida to'la inobatga olingan.

"Etim va qarovsiz bolalarni davlat muhofazasiga olish; ularni har tomonlama kamol topishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish, bu yulda respublika ta'lim muassasalarining xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorliklarini yo'lga qo'yish, sohada mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishning eng samarali yullarini topish dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri sanaladi. Ushbu muammoni ijobiy hal etish yullari orasida ilmiy anjumanlarni tashkil etish muhim ahamiyatga kasb etadi. Shu bois, mustaqillik yillarida mazkur muammoga bag'ishlangan xalqaro hamda respublika ilmiy anjumanlarini o'tkazishga alohida e'tibor qaratildi.

"Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy-axloqiy qoidalar bilan tanishtirib borish ularning axlodiy jidatdan to'g'ri tarbiyalanishlariga zamin yaratadi. Zero, tarbiyalanuvchilar tomonidan ijtimoiy-axloqiy qoidalarning yetarli darajada anglanishi ularga zid xatti-xarakatlar sodir etilishining oldini oladi. Shu sababli muassasada tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida masalaning mazkur jixatiga jiddiy e'tibor qaratilishi lozim. Tadqiqotni olib borish chog'ida ana shu maksadga yunaltirilgan pedagogik faoliyatda nimalarni inobatga olish zarurligi urganildi. Manbalar bilan tanishish, shuningdek,

jamiyatda qaror topgan shaxslararo ijtimoiy munosabat- lar mazmunini tahlil kilish asosida tarbiyalanuvchilarning quyidagi yunalishlardagi ijtimoiy-axloqiy qoidalardan xabardor bo'lishlari kelgusida ularning xar tomonlama yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishlarida muxim ekanligi anikdandi:

10. Shaxslararo munosabat va muloqotni to'g'ri tashkil etish.
11. Mehnat va kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish.
12. Ta'lif muassasasi xayoti (faoliyati) ni yulga ko'yishda ishtirok etish.
13. Maishiy turmushni yulga qo'yish.
14. Jamiyat ijtimoiy xayotida faol ishtirok etish.

Tajriba-sinov ishlari davrida tarbiyalanuvchilar uchun kun tartibi-ni tuzishda turli yoshdagi tarbiyalanuvchilarning kundalik faoliyatlar, ularning qiziqish, xoxish - istaklari xam inobatga olindi. SHu bilan birga turli yosh davri uquvchilari uchun ishlab chiqilgan kun tartibida ayrim talablarning bir xil bo'lishiga e'tibor qaratildi. Jumladan:

- doimo bir vaqtida uyqudan turish;
  - ertalabki chinikish va suv muolajasini o'tkazish;
  - kuniga uch-turt (etti) maxal belgilangan vaktgda ovqatlanish;
  - bir kunda kamida ikki soat toza xavoda bo'lish;
  - doimo bir vaktda dars tayyorlash;
  - xar xhaftada (kamida ikki marta) ikki soatdan jismoniy mashklar yoki (kulay jismoniy yuklanma) sport bilan shug'ullanish;
- bir kunda kamida sakkiz soat uqlash;
- xar kuni bir vaqtida uyquga ketish.

Zamonaviy jamiyatda yetim bolalar va bolalarni ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishga tayyorlash, ularning ijtimoiy moslashuvlarini ta'minlash dolzARB ijtimoiy - pedagogik muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Mustakil dayotga kadam ko'yishning dastlabki boskichida xar qanday o'spirin ijtimoiy yordamga edtiyoj sezadi. Bu edtiyoj odatda oila muxitida qondiriladi. Birok, ota-onasiz yoki ularning qarovidan maxrum bo'lган bolalar va o'smirlarni mustaqil

xayotga tulaqonli shaxs sifatida tayyorlash davlat va jamiyat tomonidan katta kuch sarflanishini talab qiladi.

#### **4.Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.**

Mehribonlik uyi to'g'risida Nizom. (Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 17 oktyabrdagi 230-sonli qaroriga ilova.)

1. Karimov I.A. O'zbekiston: iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida T. "O'zbekiston" 1995;
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafalotlari. -T.: «O'zbekiston», 1997.
3. Karimov I.A. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari. -T.: "SHarq", 1998
4. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. T.: «O'zbekiston», 1998.
5. Karimov I.A. Vatan va xalq manfaati har narsadan ulug'. T.: «O'zbekiston», 1998.
6. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot— pirovard maqsadimiz. T.: «O'zbekiston», 2002.
7. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: «O'zbekiston», 1996.
8. Asqarova O'. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash tizimi. T.: "Fan" 2010.
9. "Barkamol avlod yili" davlat dasturi. Toshkent: O'zbekiston, 2010.79 bet.
10. Bolalar ruhiyatiga psixologik-pedagogik yondashish yullari (bo-lalardagi psixologik muammolar va ularni bartaraf etishda mutaxassis maslaxati). Uslubiy qo'llanma. Toshkent: Respublika Bolalar ijtimoiy moslashuvi

markazi, 2008. 152 bet.

11. Abduraimov P. Milliy tarbiya tamoyillari // Kasb-xunar ta'limi. Toshkent: 2002.4-son. 16 bet.
12. Aliqulov. K Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlashning pedagogik asoslari ( jismoniy madaniyat institatlari va jismoniy tarbiya fakultetlari misolida ): Ped. Fan nomz... diss. Toshkent, 2007. 145 bet
13. Mehribonlik uylarida pedagogik va psihologik kuzatish ishini tashkillashtirish. Toshkent: Respublika Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2008. 50 bet
14. To'xtamurodov E. Bolalar uylarida tarbiyalanuvchilarni oilaviy dayotga tayyorlashning ijtimoiy va pedagogik asoslari: Ped.fanl.nomz.... diss. Toshkent, 1995. 151 bet.
15. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika / Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. 229 bet
16. [http://www1.umn.edu/humanrts/russian/crc/Rreport\\_uzbeki-\\_stan2005.html](http://www1.umn.edu/humanrts/russian/crc/Rreport_uzbeki-_stan2005.html). Vtorые periodicheskie dokladi gosudarstv-uchastnikov, podlejahiie predstavleniyu v 2001 godu, O'zbekistan, CRC/C/104/ Add.6, 30 avgusta 2005.
17. [http://www.centrasia.ru/newsA.php4?st=\\_1069621500](http://www.centrasia.ru/newsA.php4?st=_1069621500). Gryaznova O. I dom, i mama, i semya.
18. <http://edunews.eurekanet.ru/vesti/info/954.html> Gosudarstvennye deti - kak nauchit ix otvechat za svoyu sudbu?
19. [http://www.deti.zp.ua/show\\_article.php?a\\_id=300105](http://www.deti.zp.ua/show_article.php?a_id=300105). Gosudarstvennaya pomohi detyam-sirotam.
20. <http://www.rl-online.ru/articles/l-04/413.html>. Parfenova Q. Istoriya razvitiya sozial'nogo prizreniya detey-sirot v Rossii XVIII - nachala XX veka na primere Chuvashii.
21. <http://eparhia.onego.ru/sirota.htm>. Sirotstvo v istorii Rossii.

22.<http://kid-in-danger.narod.ru/>. Sotsialniy priyut dlya detey.

---